O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

MUQIMOVA ZOHIDA RASULOVNA

LINGVOMADANIY KODLARNING OLAMNING LISONIY MANZARASIDAGI O'RNI
(o'zbek tili barqaror birliklari misolida)

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

MUQIMOVA ZOHIDA RASULOVNA

LINGVOMADANIY KODLARNING OLAMNING LISONIY MANZARASIDAGI O'RNI
(o'zbek tili barqaror birliklari misolida)

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Fil.402 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbek tili, adabiyoti va instituti veb-sahifasining www.tai.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Xudayberganova Durdona Sidikovna** Filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Hakimova Muhayyo Karimovna** Filologiya fanlari doktori, professor
	Usmanova Shoira Rustamovna Filologiya fanlari doktori, professor
	Saparniyazova Muyassar Filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/3012.2019.Fil.46.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "*5*" *mart* soat *11* dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel: (871) 233-36-50; faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (*11* raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 700100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "*19*" *fevral* kuni tarqatildi.
(2025-yil "*19*" *fevral* dagi *1* raqamli reyestr bayonnomasi).

N.M.Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f. f. d., professor

A.M.Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Y.R.Odilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til va madaniyatning o'zaro munosabatini tadqiq etuvchi lingvomadaniyatshunoslik sohasiga alohida e'tibor berilmoqda. Til va madaniyat, olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy kodlar borasida turli tilshunosliklarda muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir xalq madaniy o'ziga xosligini saqlab qolishga jiddiy e'tibor qaratayotgan bugungi globallashuv davrida madaniyat belgilarining tilda ifodalanishini tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida til va madaniyat, til va tafakkur o'rtasidagi aloqaga, har bir xalqning o'z milliy madaniyati, qadriyat va urf-odatlarini saqlab qolish, yoyish, milliy til umrboqiyligini ta'minlashga, uning milliy madaniyatining yorqin ifodasi bo'lgan barqaror birliklarga, ular tarkibidagi tayanch qism bo'lgan lingvomadaniy kodlarga qaratilgan lingvomadaniyatshunoslikka oid tadqiqotlar doirasini kengaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ushbu tadqiqotlar har bir millatning moddiy va ma'naviy madaniyati til bilan bog'liq tarzda o'zining ilmiy-nazariy asosini topishini isbotlamoqda.

O'zbek tilshunosligida ham tilning milliy madaniyat bilan aloqasini o'rganuvchi lingvomadaniyatshunoslik sohasida samarali ishlar olib borilmoqda. Biroq xalqning milliy ongi, milliy tafakkurini namoyon etuvchi barqaror birliklarning lingvomadaniy tadqiqi doirasidagi izlanishlar yetarli darajada emas. O'zbek tili barqaror birliklarida xalqning milliy ongi, milliy tafakkuri, yashash tarzining mavjud bosqichlari, urf-odatlari, axloqiy qarashlari yorqin aks etadi. "Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar"[1]. Shu nuqtayi nazardan o'zida o'zbek xalqining ulkan ma'naviy merosini saqlab, avloddan avlodga meros sifatida olib o'tuvchi o'zbek tilining lingvomadaniy xususiyatlarini, jumladan, barqaror birliklarda lingvomadaniy mazmun shakllanishida eng muhim omil hisoblanuvchi lingvomadaniy kodlarni tadqiq qilish o'zbek tilshunosligining dolzarb ilmiy masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari; 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida"gi qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[2] Muayyan xalqning milliy-madaniy tasavvurlari, obrazli tafakkuri mahsuli hisoblangan lingvomadaniy kodlarning tadqiqi masalasiga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markaz va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Moskva davlat universiteti (Московский государственный университет), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Санкт-Петербургский государственный университет), Samara universiteti (Самарский университет), Boshqir davlat universiteti (Башкирский государственный университет), Kembrij universiteti (Cambridge university), Amsterdam universiteti, Kabardino-Balkar davlat universiteti (Кабардино-Балкарский государственный университет), Novosibirsk davlat universiteti (Новосибирский государственный университет), shuningdek, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida madaniy kodlarning lingvomadaniy tahlili doirasidagi tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy umumlashma natijalarga erishilgan: madaniy kodlar muayyan madaniy mazmunni kodlashtirish maqsadida qo‘llanuvchi turli moddiy va formal vositalardan iborat ikkilamchi belgilar tizimi ekanligi (Московский педагогический государственный университет), ular verbal shaklda ham, noverbal shaklda ham bo‘lishi mumkinligi, olamni qismlarga ajratishi, tartiblashtirishi, shaklga solishi hamda baholashi (Московский государственный университет), madaniyatni tushunish kaliti bo‘lib, u biror-bir shaklda kodlangan madaniy axborotni aniqlash imkonini berishi (Государственный институт русского языка им. А.С.Пушкина), ma'lum bir madaniyatda o‘rinlashgan obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarurligi, muayyan shaklda kodlangan madaniy axborot; olam manzarasidagi naturfaktlar, artefaktlar hamda insonning ichki ruhiy olamini anglatuvchi tushunchalarni kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimi (O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti), o‘zida madaniyat

─────────────────────
[2] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi udep.edu.pe/hoy/2016/la-metafora-como-fenomeno-cognitivo-estructura-nuestro-pensamiento-y-actuar; cyberleninka.ru/article/n/antropomorfnyy-i-somaticheskiy-kody-kultury-v-modelirovanii-landshafta-i-ih-otrazhenie-v-bashkirskoy-toponimii/viewer; https://7universum.com/ru/philology/archive/item/4930 (дата обращения: 02.11.2021); https://www.uaa.mx/portal/, https://www.upenn.edu/, https://dialnet.unirioja.es/servlet/articulo?codigo=3086103, https://www.uzswlu.uz/, http://www.tsutmb.ru va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

ustuvorliklarini aks ettiruvchi asosiy tushuncha, qadriyat va me'yorlar yig'indisi (Andijon davlat universiteti) ekanligi tadqiq etilgan.

Jahon tilshunosligida lingvomadaniy kodlar bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: muayyan etnos tilida lingvomadaniy kodlarning antropotsentrik tadqiqini amalga oshirish, olamning lisoniy manzarasi yaratilishida lingvomadaniy kodlarning tutgan o'rnini aniqlash, qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi lingvomadaniy kodlarni qiyoslash, chog'ishtirish asosida muayyan tillarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, tilning barqaror birliklarida, jumladan, maqol, ibora, turg'un o'xshatish, topishmoq, tasviriy ifodalarda lingvomadaniy kodlarning voqelanishini o'rganish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda dunyo filologlarining diqqat markazida bo'lgan lingvomadaniy kodlarning o'rni masalasi ham tilshunoslikda alohida ahamiyatga egadir. Bu borada jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham muayyan tadqiqotlar qilingan.

Jahon tilshunosligida V.fon Gumboldt, V.N.Teliya, V.V.Vorobyov, S.V.Ivanova, V.A.Maslova, M.V.Pimenova, Y.E.Brazgovskaya, V.V.Krasnix, V.V.Kolesovlarning[3] lingvomadaniyatshunoslik doirasidagi ishlari ilmiy qimmatga ega. O'zbek tilshunosligida N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmanova, G.Nasrullayeva, Sh.Mahmaraimova, F.Musayeva, F.Usmonov, Sh.Qalandarov, B.R.Kadirova[4] va boshqa olimlarning o'zbek tilining lingvomadaniy xususiyatlariga doir tadqiqotlari diqqatga sazovor.

---

[3] Гумбольдт В.фон. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – 2-е изд. М., 2000. – 450 с.; Колесов В.В. Концепт культуры: образ–понятие – символ // Вестник Санк-Петербургского университета. – М., 1992. – Сер. 2. – Вып 3. – С. 41–49.; Колесов В.В. Язык и ментальность. – СПб.: Изд-во Петербургского Востоковедения, 2004; Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Шк. Языки русской культуры, 1996. – 288 с; Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: РУДН, 1997. – 331 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пос. для студ. вузов. – М.: Академия, 2001. – 208 с.; Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору // Язык, сознание, коммуникация: Сб.статей. – М.: МАКС Пресс, 2001. – С.5-19.; Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: Гнозис, 2002. – 284 с.; Иванова С.В. Культурологический аспект языковых единиц. – Уфа, 2002. – 114 с.; Пименова М.В. Коды культуры и принципы концептуализации мира / М.В. Пименова // Студиа лингвистика когнитиве. Вып.1. Язык и познание: Методологические проблемы и перспективы. – М.: Гнозис, 2006. – С. 172–187; Бразговская Е.Е. Языки и коды. Введение в семиотику культуры. – Пермь: ПГПУ, 2008. – 201 с.; Маслова В.А., Пименова М.В. Коды лингвокультуры: Учебное пособие. – 3-е изд., стер. – М.: Флинта: Наука, 2018. – 180 с.

[4] Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 19–24; Shu muallif. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16; Shu muallif. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – № 3. – Б. 6; Shu muallif. Ўхшатишлар ва миллий нигоҳ // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. – Б. 166–175; Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.; Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. доктори ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.; Shu muallif. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 46б.; Shu muallif. Тил, тафаккур, маданият: Илмий рисола. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – 120 б.; Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent, 2017. – 255 b.; Shu muallif. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent, 2019. – 245 b.; Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лингвомаданий, коммуникатив, прагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Қарши, 2018. – 147 б.; Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида метафора (Ўзбек тили теоморфик метафораси материаллари асосида): Монография. – Тошкент: Nodirabegim, 2019. – 128 б.; Shu muallif. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Монография. – Термиз: Сурхон-нашр, 2020. – 220 б.; Мусаева М. Ўзбек шеваларининг лингвомаданий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2019. – 120 б.; Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича

Jahon tilshunosligida lingvomadaniy kodlar haqida hamda ularni lingvistik jihatdan tahlil qilib beruvchi asarlar, ilmiy tadqiqotlar yaratilgan[5]. O'zbek tilshunosligida D.Xudoyberganova lingvomadaniyatshunoslik terminlariga bag'ishlangan lug'atida *madaniyat kodlari* termini hamda bu bilan bog'liq bir qancha terminlarning ilmiy ta'rifini berdi[6]. Keyinchalik u o'zbek tili birliklari lingvomadaniy kodlar nuqtayi nazaridan o'rganilishi kerakligi xususidagi qarashni ilgari surdi[7]. F.Usmonov tadqiqotining 2-bobida o'xshatishlar lingvomadaniy birliklar bilan uzviylikda tadqiq etildi[8]. Ammo aytish joizki, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniy kodlar shu vaqtga qadar monografik yondashuvda o'rganilgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini yaratish" mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidagi lingvomadaniy kodlarning yuzaga chiqish mexanizmi qonuniyatlarini aniqlash hamda o'zbekcha olamning lisoniy manzarasidagi o'rnini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek tilidagi xalqning milliy idroki va tafakkur tarzini aks ettirishga xizmat qiluvchi lingvomadaniy kodlarning olam lisoniy manzarasidagi o'rnini aniqlash;

xalq maqollari, topishmoqlar, iboralar, turg'un o'xshatishlar va tasviriy ifodalarning olamning o'zbekcha lisoniy manzarasini yaratishdagi ahamiyatini yoritish;

фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 160 б.; Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 40 б.; Кадирова Б.Р. Белги билдурувчи лексемаларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Монография. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – 132 б.

[5] Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору // Язык, сознание, коммуникация: Сб.статей. – М.: МАКС Пресс, 2001. – С. 5-19; Кононенко Б.И. Большой толковый словарь по культурологии. – М.: Вече, 2003. – 511с.; Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М., 2006; Гудков Д.Б., Ковшова М.Л. Телесный код русской культуры. – М.: Гнозис, 2007 – С.288; Гукеглова Ф.Н. Зооморфный код культуры в языковой картине мира (на материале французского, кабардино-черкесского и русского языков): Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – М., 2009. – 47 с.; Ойноткинова Н.Р. Соматический код культуры в пословицах и поговорках алтайцев // Сибирский филологический журнал. – Новосибирск, 2011. – № 3. – С. 5–14; Кенжабалина Г.Н. Коды культуры в дискурсе СМИ Казахстана // Политическая лингвистика. – М., 2013. – №1. – С. 152–157; Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 8–9; Бухарова Г.Х. Антропоморфный и соматический коды культуры в моделировании ландшафта и их отражение в башкирской топонимии // Вестник Башкирского университета, 2015. – № 4. – С. 487–494. / https://cyberleninka.ru/article/n/antropomorfnyy-i-somaticheskiy-kody-kultury-v-modelirovanii-landshafta-i-ih-otrazhenie-v-bashkirskoy-toponimii/viewer; Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4. – С. 79 б.; Краснобаева-Чёрная Ж.В. Пространственный код культуры ценностной картины мира (на материале русской, украинской, английской и немецкой фразеологии) // Сибирский филологический журнал. – М., 2018. – № 4. – С. 169-178; Саргач Х. Коды културы как одно из основных понятий лингвокультурологии: на материале фразеологизмов с компонентом "камень" и "ветер" в русском и турецком языках // www.ulakbildergisu.com.

[6] Худойберганова Д. Ko'rsatilgan lug'at. – B. 22, 29–30, 34–35.

[7] Худойберганова Д. Лингвокультурологияда маданият кодлари тушунчаси ва талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2019. – № 3. – Б. 15–21.

[8] Усмонов Ф. Ko'rsatilgan dissertatsiya. – B. 58–90.

o'zbek tilida asosiy lingvomadaniy kodlar hisoblangan somatik lingvomadaniy kodlar, narsa-buyum lingvomadaniy kodlari, makon lingvomadaniy kodlari, vaqt lingvomadaniy kodlari hamda ma'naviy lingvomadaniy kodlarning barqaror birliklarning lingvomadaniy mazmuni shakllanishida tayanch qism vazifasida kelishini asoslash;

o'zbek tilidagi biomorf lingvomadaniy kodlarning lisoniy-madaniy xususiyatlarini aniqlash;

tabiat tushunchasi bilan bog'liq so'zlarning lingvomadaniy kod sifatida voqelanishining lingvistik jihatlarini yoritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek tili barqaror birliklarida lingvomadaniy mazmunning shakllanishida tayanch qism vazifasini bajaruvchi lingvomadaniy kodlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilidagi lingvomadaniy kodlarning lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tavsiflash, tasniflash, leksik-semantik, lingvomadaniy tahlillardan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: *boshi osmonda, boshing toshdan bo'lsin* (ibora)*; paxtaday oq*, *sandiqdek katta*, *tandirdek qizimoq*, *musichaday beozor* (turg'un o'xshatish); *ekinning qoni*, *bahor elchisi* (tasviriy ifoda)*; Asal aynimas, sariyog' sasimas; O'z yurting – o'lan to'shaging, O'zga yurt bo'lmas beshiging* (maqol)*; Qorong'u uyda O'ttiz sadaf* (*Og'iz, tish*); *Bir hujra, Bir hujraning ichida hujra, Qirq hujraning ichida mullabachchalar* (*Anor va uning donachalari*) (topishmoq) kabi o'zbek tili barqaror birliklari tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik sohasiga oid nazariy qarashlarga asoslangan holda dalillangan;

o'zbek tili barqaror birliklari: ibora, maqol, topishmoq, turg'un o'xshatish, tasviriy ifoda kabilar o'zbek xalqi tafakkurining in'kosi sifatida xalqning milliy-obrazli tafakkuri, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi olamning o'zbekcha lisoniy manzarasini yuzaga keltirishga xizmat qilishi isbotlangan;

o'zbek xalqning o'zbekona milliy tafakkuri; bag'rikenglik, olijanoblik, mardlik, vatanparvarlik kabi milliy madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan va millat idrokini belgilab, uni in'ikos etishga xizmat qiluvchi *quyosh*, *oy*, *danak*, *mag'iz*, *chinor*, *gul*, *sher*, *bo'ri*, *belbog'*, *tegirmon* kabi lingvomadaniy kodlarning olam lisoniy manzarasidagi o'rni aniqlangan hamda lingvomadaniy kodlar voqelanishida metaforaning eng faol vosita ekanligi asoslangan;

lingvomadaniy kod vazifasini bajargan *arslon, yo'lbars, musicha, qo'y, burgut, ayiq, lochin, qaldirg'och, ot, it, tulki, gul*, *chechak*, *nihol*, *danak, chinor, olma*, *ona*, *kelin*, *qul*, *Hasan-Husan*, *Fotima-Zuhra*, *Sariboy akam*, *Esonboy akam* singari birliklar kodlar tipologiyasiga asosan guruhlashtirilib, ularning dovyuraklik, vafodorlik, beozorlik, yuvoshlik, mardlik; shafqatsizlik, ayyorlik, tajovuzkorlik kabi xalq milliy-madaniy tasavvurlarini yuzaga keltiruvchi vosita bo'lishi dalillangan;

o'zbek tili barqaror birliklari tarkibida tayanch vazifa bajaruvchi asosiy lingvomadaniy kodlar: *barmoq*, *bosh*, *oyoq*, *qo'l*, *soch*, *til*, *o'pka* kabi somatik lingvomadaniy kodlar; *beshik, ko'rpa, kaltak, pichoq, tegirmon, tovoq, ketmon,*

o'roq, *non*, *do'ppi*, *to'n*, *qarmoq*, *qamchi*, *to'rva*, *qopqon*, *belbog'* kabi narsa-buyum lingvomadaniy kodlari; *bog'*, *bozor*, *devor*, *tom*, *to'qay*, *uya*, *yurt*, *o'rmon* singari makon lingvomadaniy kodlari; *bahor*, *kuz*, *shom*, *xufton* kabi vaqt lingvomadaniy kodlari; oila hamda u bilan bog'liq tushunchalar tayanch qism bo'lgan ma'naviy lingvomadaniy kodlar; *arslon*, *ayiq*, *yo'lbars*, *ot*, *it*, *tulki; gul*, *chechak*, *nihol*, *chinor*; *kampir*, *kelin*, *qul*, *Hasan-Husan*, *Fotima-Zuhra*, *Sariboy akam*, *Esonboy akam* singari biomorf lingvomadaniy kodlar va *osmon*, *quyosh*, *oy*, *yulduz*, *tog'*, *tosh*, *buloq*, *daryo* kabi tabiat tushunchasi bilan bog'liq lingvomadaniy kodlarning ijtimoiy-madaniy, madaniy-tarixiy, lisoniy-madaniy xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tili barqaror birliklarida tayanch qism bo'lgan lingvomadaniy kodlar bo'yicha to'plangan materiallar, ularning tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosa va talqinlar lingvomadaniyatshunoslik, semantika, leksikologiya, frazeologiya uchun muhim zaruriy, ilmiy ma'lumot berishi hamda bu yo'nalishga doir tadqiqotlar yaratishda manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan;

o'zbek tili lingvomadaniy kodlari xalqning milliy-madaniy tasavvurlari, obrazli tafakkuri in'ikosi sifatida olamning o'ziga xos o'zbekcha lisoniy manzarasini yuzaga keltirganligi lingvomadaniy nuqtayi nazardan ochib berilgan;

o'zbek tili lingvomadaniy kodlari bo'yicha to'plangan materiallar izohli, lingvomadaniy lug'atlarga material hamda manba sifatida xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma'lumotlar va faktik materiallarni qo'llashda ishonchli ilmiy manbalardan foydalanilgani, misollarning o'zbek tilidagi lug'atlar hamda ilmiy, badiiy adabiyotlardan olinganligi, ishning o'rganilish doirasi aniq belgilangani, konseptual tahlil, tavsiflash, lingvomadaniy tahlil kabi usullar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, mamlakatimiz va xorijiy olimlar fundamental tadqiqotlaridan foydalanilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to'plangan materiallar va olingan natijalar lingvomadaniyatshunoslik, semantika, tarjimashunoslik, leksikologiya, frazeologiyaga doir izlanishlarga, shuningdek, kelgusida o'zbek tili olam manzarasi tadqiqiga oid milliy-madaniy, baholovchi-aksiologik tadqiqotlar olib borishga hamda monografiyalar, o'quv qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Lingvomadaniyatshunoslik", "Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari", "Matn lingvistikasi" kabi fanlarni o'qitishda, seminar, maxsus kurslar tashkil etishda, o'zbek tilini o'rgatish uchun dasturlar, darslik, o'quv qo'llanmalari tayyorlashda, lingvomadaniy lug'atlar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o'rnini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

boshi osmonda, *boshing toshdan bo‘lsin* (ibora); *paxtaday oq*, *sandiqdek katta*, *tandirdek qizimoq*, *musichaday beozor* (turg‘un o‘xshatish); *ekinning qoni*, *bahor elchisi* (tasviriy ifoda); *Asal aynimas, sariyog‘ sasimas*; *O‘z yurting – o‘lan to‘shaging*, *O‘zga yurt bo‘lmas beshiging* (maqol); *Qorong‘u uyda O‘ttiz sadaf* (*Og‘iz, tish*); *Bir hujra, Bir hujraning ichida hujra, Qirq hujraning ichida mullabachchalar* (*Anor va uning donachalari*) (topishmoq) kabi o‘zbek tili barqaror birliklari tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik sohasiga oid nazariy qarashlarga asoslangan holda dalillangani hamda o‘zbek tili barqaror birliklari: ibora, maqol, topishmoq, turg‘un o‘xshatish, tasviriy ifoda kabilar o‘zbek xalqi tafakkurining in’kosi sifatida xalqning milliy-obrazli tafakkuri, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi olamning o‘zbekcha lisoniy manzarasini yuzaga keltirishga xizmat qilishi isbotlanganiga oid xulosalardan OT-F1-78 raqamli "Hozirgi globallashuv davrida o‘zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (vazifaviy uslublar tahlili asosida)" mavzusidagi fundamental loyihaning o‘zbek tilining ilmiy uslubi taraqqiyoti haqidagi qismlarida fan sohalari yangi terminologik birliklar bilan boyiganligini asoslash uchun foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 20-iyundagi 3/1255-1372-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha materiallarining lisoniy birliklar vositasida asoslanganlik darajasi oshgan hamda mazmunan boyigan;

o‘zbek xalqning o‘zbekona milliy tafakkuri; bag‘rikenglik, olijanoblik, mardlik, vatanparvarlik kabi milliy madaniyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan va millat idrokini belgilab, uni in’ikos etishga xizmat qiluvchi *quyosh, oy, danak, mag‘iz, chinor, gul, sher, bo‘ri, belbog‘, tegirmon* kabi lingvomadaniy kodlarning olam lisoniy manzarasidagi o‘rni aniqlangan hamda lingvomadaniy kodlar voqelanishida metaforaning eng faol vosita ekanligi asoslangani hamda lingvomadaniy kod vazifasini bajargan *arslon, yo‘lbars, musicha, qo‘y, burgut, ayiq, lochin, qaldirg‘och, ot, it, tulki, gul, chechak, nihol, danak, chinor, olma, ona, kelin, qul, Hasan-Husan, Fotima-Zuhra, Sariboy akam, Esonboy akam* singari birliklar kodlar tipologiyasiga asosan guruhlashtirilib, ularning dovyuraklik, vafodorlik, beozorlik, yuvoshlik, mardlik; shafqatsizlik, ayyorlik, tajovuzkorlik kabi xalq milliy-madaniy tasavvurlarini yuzaga keltiruvchi vosita bo‘lishi dalillanganiga doir xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan "Qoraqalpoq folklorida dunyoning etnolingvistik tasvirini monografik aspektda tahlil qilish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 26-iyundagi №248/1-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha zamonaviy o‘zbek tilshunosligidagi yangi nazariy qarashlar, lingvomadaniy tushunchalar bilan boyishida tadqiqot ishi zaruriy manba vazifasini o‘tadi.

o‘zbek tili barqaror birliklari tarkibida tayanch vazifa bajaruvchi asosiy lingvomadaniy kodlar: *barmoq, til, o‘pka, bosh, soch, qo‘l, oyoq* kabi somatik lingvomadaniy kodlar; *beshik, ko‘rpa, kaltak, pichoq, tegirmon, tovoq, ketmon, o‘roq, non, do‘ppi, to‘n, qarmoq, qamchi, to‘rva, o‘roq, qopqon, belbog‘* kabi narsa-buyum lingvomadaniy kodlari; *bog‘, uya, bozor, yurt, o‘rmon, to‘qay, tom, uya, devor* singari makon lingvomadaniy kodlari; *bahor, kuz, shom, xufton* kabi

vaqt lingvomadaniy kodlari; oila hamda u bilan bogʻliq tushunchalar tayanch qism boʻlgan ma'naviy lingvomadaniy kodlar; *arslon, ayiq, yoʻlbars, ot, it, tulki; gul, chechak, nihol, chinor; kampir, kelin, qul, Hasan-Husan, Fotima-Zuhra, Sariboy akam, Esonboy akam* singari biomorf lingvomadaniy kodlar va *osmon, quyosh, oy, yulduz, togʻ, tosh, buloq, daryo* kabi tabiat tushunchasi bilan bogʻliq lingvomadaniy kodlarning ijtimoiy-madaniy, madaniy-tarixiy, lisoniy-madaniy xususiyatlari ochib berilgani xususidagi xulosalardan Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Oʻzbekiston" telekanalida efirga uzatilgan "Oydin hayot live" koʻrsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Oʻzbekiston" teleradiokanali"ning 2024-yil 29-maydagi 01-44-53-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu telekoʻrsatuv uchun tayyorlangan materialning mazmuni mukammallashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.

Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 25 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola (10 ta maqola respublika, 5 ta maqola xalqaro va Scopus bazasidagi jurnallarda) nashr etilgan. Natijalar 1 ta monografiyada aksini topgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, besh bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan boʻlib, hajmi 237 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida oʻtkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **"Lisoniy birliklarga lingvomadaniy yondashuvning ustuvor masalalari"** deb nomlangan. Bobning ***"Oʻzbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi"*** deb nomlangan dastlabki faslidan tilshunoslikda antropotsentrik yondashuvdagi tadqiqotlarning zarurati, olamning lisoniy manzarasi oʻrni, til va madaniyatning oʻzaro munosabati, lingvomadaniy birliklarni tadqiq etish muammolari hamda lingvomadaniyatshunoslikning vazifasi kabi masalalar xususidagi mulohazalar oʻrin olgan. XX asrning soʻnggi choragida oʻzbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma ustuvorlik qila boshlagani, lisoniy birliklarni millat madaniyati bilan aloqadorlikda oʻrganuvchi lingvomadaniyatshunoslik yetakchi hamda istiqbolli yoʻnalishlardan biriga aylanayotgani, tilshunoslikning mustaqil yoʻnalishi sifatida

tan olingani yoritilgan. Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy maqsadi u yoki bu lingvomadaniy hamjamiyat vakillarining olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarining tilda aks etishini o'rganishdan iborat ekanligi ta'kidlangan. Tilshunosligimizda tilning lingvomadaniy tahlilini jiddiy va tizimli ravishda amalga oshirish borasida qilingan ishlar haqida fikr bildirilgan.

O'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikka oid tadqiqotlar, asosan, quyidagi yondashuvlar doirasida olib borildi: o'zbek tili lingvomadaniy birliklarining antropotsentrik tadqiqini amalga oshirish, olamning lisoniy manzarasi yaratilishida lingvomadaniy birliklarning tutgan o'rnini aniqlash, muayyan konsept voqelanishini lingvomadaniy jihatdan o'rganish.

Tilshunosligimizda tilning lingvomadaniy tahlilini amalga oshirish XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlandi. Lingvomadaniyatshunoslikka oid dastlabki maqolalar "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida N.Mahmudov, E.Begmatov, A.Nurmonov tomonidan e'lon qilindi[9]. Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab…"[10] nomli maqolasida lingvomadaniyatshunoslik sohasining mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berilgan. Maqolada lingvomadaniyatshunoslikka oid nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida asosli mulohazalar aytilgan"[11]. Mazkur maqola "tilni shaxs omili asosida o'rganishni maqsad qilgan tadqiqotchilar uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda"[12]. D.Xudoyberganovaning "O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi milliy tilshunosligimizdan lingvomadaniyatshunoslikka oid qarashlarning o'rin olishida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur tadqiqotda lingvomadaniyatshunoslik sohasining shakllanishi, uning tadqiqot obyekti, vazifalari xususida ma'lumot berilgan, sohaga oid *lingvomadaniy birliklar, lingvomadaniy konsept, pretsedent birliklar, matn-metaforalar, matn-o'xshatishlar, til egasi* kabi terminlarning mohiyati yoritilgan, tilning akkumulyativlik xususiyatiga e'tibor qaratilib, o'zbek tilini lingvomadaniy aspektda tahlil qilishda barqaror obrazli birliklarga tayanish xususidagi qarashlar ilgari surilgan[13]. Aytish joizki, ushbu dissertatsiya o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikka doir qator tadqiqotlarning yuzaga kelishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

D.Rustamovning "Leksemalar milliy-madaniy xoslangan sememasining lingvomadaniy aspekti" nomli tadqiqotida ayrim til birliklarining milliy va

---

[9] Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 19–24; Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35–39; Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизм назариялари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 10–19.

[10] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3–16.

[11] Худойберганова Д. Ўзбек лингвомаданиятшунослигининг устувор вазифалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – № 5. – Б. 4.

[12] Мадвалиев А., Одилов Ё. Ўзбек тилшунослиги мустақиллик йилларида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2016. – № 4. – Б. 49.

[13] Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.

madaniy komponentlari tahlilga tortilgan[14]. Sh.Usmanovaning “Lingvokulturologiya” kitobida til va madaniyat uzviy aloqada ekanligi, biri ikkinchisini muntazam to‘ldirib turishi, ikkinchisisiz biri yashay olmasligi, tilning boyishi, rivoji uning sohibiga hamda ular tafakkuriga, tiliga mansub madaniy kodlarning shakllanishi omiliga bog‘liqligi ixcham shaklda, lo‘nda ifodalarda aks ettirilgan[15]. F.Usmonov “O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi”[16] mavzusidagi tadqiqot ishida o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar semantikasida milliy-madaniy konnotatsiyaning o‘rni aniqlab berilgan, o‘xshatish etaloni vazifasini bajaruvchi obrazlar lingvomadaniy yondashuvda guruhlashtirilgan va lingvomadaniy kodlar nuqtayi nazaridan yoritilgan, o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlarning tahlili asosida o‘zbek millatining madaniy me’yorlari hamda aksiologik munosabatiga xos jihatlar aniqlangan[17].

O‘zbek tilshunosligida antropotsentrik tadqiq tamoyillari lug‘atlarda ham o‘z aksini topa boshladi. N.Mahmudov boshchiligida tuzilgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”[18]da birinchi marta tilimizdagi 500 dan ziyod turg‘un o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari yoritib berildi. D.Xudoyberganovaning “Lingvokulturologiya terminlarning qisqacha izohli lug‘ati”[19] nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki turkiyshunoslikda ham lingvomadaniyatshunoslikka oid ilk lug‘at hisoblanadi. Unda ayni sohaning asosiy terminlari izohlangan. Mazkur lug‘atda tadqiq obyektimiz bo‘lgan *lingvomadaniy kod* termini hamda uning turlari izohlangan. Shu o‘rinda aytish joizki, D.Xudoyberganovaning joriy yilda chop etilgan “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”[20]da lingvomadaniy kodga, uning har bir turiga aniq va maqbul ta’rif berilgan. “O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar)”[21] esa o‘zbek tilidagi milliy-madaniy birliklar bilan assotsiativ munosabatga kirishuvchi til birliklari haqida ma’lumot beruvchi dastlabki lug‘atdir. Mazkur lug‘atda milliy-madaniy birliklar haqida nazariy ma’lumotlar berilgan, o‘zbek tili milliy-madaniy birliklarining namunalari keltirilgan. Ushbu lug‘at o‘zbek milliy-madaniy birliklari haqidagi tasavvurimizni boyitishi bilan ahamiyatlidir. Z.Xolmonova, D.Toshevalarning “Zoonim komponentli paremalarning izohli lug‘ati”[22]da o‘zbek tilidagi zoonim komponentli maqollarning mazmuni lingvomadaniy nuqtayi nazardan izohlangan.

[14]Qarang: Рустамов Д. Лексемалар миллий-маданий хосланган семемасининг лингвомаданий аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2018. – 129 б.

[15] Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – 245 b.

[16] Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 160.

[17] Khudaybergranova D., Mukimova Z., Karimova F. The role of linguistic anthropocentrism theories in uzbek national linguistics. ISSN: 2764-4170. Miami, v.11. – P: 01-15. e02524/ 2023. https: //www. scopus.com/sourceid.

[18] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.

[19] Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қичқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 41 б.

[20] Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 112 b.

[21] Лутфуллаева Д., Давлатова Р., Тожибоев Б. “Ўзбек тили ассоциатив луғати” ҳақида / Ўзбек тили ассоциатив луғати (миллий-маданий бирликлар). – Тошкент: Навоий университети, 2019. – Б. 16.

[22] Холманова З., Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016. – 360 б.

Bobning "*Olamning lisoniy manzarasi termini xususida*" deb nomlangan faslida olimlarning *olamning lisoniy manzarasi* termini haqidagi ta'rifi, fikrlari keltirilgan, ularga munosabat bildirilgan, til yordamida olam manzarasi yaratilishi yoritilgan. Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan lingvomadaniyatshunoslik ana shunday madaniyat "tili" talqini bilan shug'ullanuvchi antropotsentrik soha sifatida fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, milliy-madaniy konnotativlik, madaniy sema, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalarni olib kirdi. Ular qatorida madaniyat kodlari tushunchasi alohida mavqega ega. Ilmiy adabiyotlarda olamning lisoniy manzarasi tushunchasi bilan yonma-yon tarzda *olamning konseptual manzarasi*, *olamning bevosita manzarasi*, *olamning bilvosita manzarasi*, *olamning badiiy manzarasi*, *olamning ilmiy manzarasi* terminlari kuzatiladi. Bu terminlar aynan bir tushunchani ifodalamaydi. *Olamning lisoniy manzarasi* – (L.Vaysgerber termini) "Tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilda barqarorlashgan dunyo haqidagi tasavvurlar, dunyoni anglash va bo'laklash usullarining jami" demakdir[23]. Olamning lisoniy manzarasi – turli madaniyat vakillarining dunyoni o'zlariga xos tarzda idrok etishlari, his qilishlari natijasida yuzaga kelgan dunyoning o'ziga xos va noyob qiyofasi, dunyo haqidagi g'oyalar (qadriyatlar, me'yorlar, axloq normalari) majmuyi, real olamning til vositalari yordamida yaratilgan tasviridir. Olamning lisoniy manzarasi o'zi mansub bo'lgan millatning milliy madaniyatini o'zida yaqqol namoyon qiladi va har bir xalqning madaniyatiga xos bo'lgan o'ziga xosliklarni o'rganish, anglash, shu bilan birga, bir madaniyatni boshqasidan ajratish imkonini beradi.

Bobning uchinchi fasli "*Olamning obrazli manzarasini yaratishda metaforaning o'rni*" deb atalib, bunda metaforaning lingvomadaniy xususiyati tahlilga tortilgan. Metafora olamni bilishning eng qudratli qurollaridan biri hamda olamni anglash vositasi bo'lib, u inson tafakkurining xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Metafora dunyoni bilish usuli, u vositasida til, ong va madaniyatning o'zaro ta'siri namoyon bo'ladi. Olamni bilishning universal vositasi sifatida metafora, shubhasiz, madaniy ma'lumotlarni to'plash va saqlash imkonini beradi.

Metafora lingvomadaniy kodlarni hosil qiluvchi usullardan biridir. Metaforaning ushbu xususiyati barqaror birlik sanaluvchi topishmoqlarda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularda borliqdagi predmetlar insoniy qiyofada namoyon bo'ladi. Tadqiqotchilar qayd etganidek, topishmoqlarning aksariyati metaforik matndan iborat[24]: *Oq yer ochdim, qora bug'doy sochdim (Qog'oz, yozuv)*; *Qora sigir qarab turar, Sariq sigir yalab turar (Qozon, olov)* kabi topishmoqlar matnida ifodalangan mazmun boshqa bir tagma'noga ishora qilib keladi. Bunga M.Saparniyazova o'z tadqiqotida *Fotima-Zuhra urishadi, Merosini bo'lishadi (Qaychi)* topishmog'ini misol sifatida keltirgan[25]. Bu kabi matnlar voqelikni obrazli idrok etishning ixcham ko'rinishlari hisoblanadi. Topishmoqlarga xos yana

---

[23] Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – № 3. – Б. 6.
[24] Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 58.
[25] Сапарниязова М. Ko'rsatilgan dissertatsiya. – B. 60.

bir xususiyat shundaki, ularda lingvomadaniy kodlardan foydalanish yuqori darajadadir. Shu o'rinda aytish joizki, tildagi biror so'zning metaforik ma'nosi bilan lingvomadaniy kod sifatida voqelangan so'zning ma'nosi o'rtasida muayyan farq bor: lingvomadaniy kodni ifodalovchi so'z o'zi qatnashgan matn yoki jumla mazmuniga mustahkam bog'langan bo'ladi, uning ko'chma ma'noda qo'llanishida kontekstning roli muhimdir.

Bobning "*Madaniy kodlar – madaniyatni tushunish kaliti*" deb nomlangan faslida *kod, kodlash, madaniy kod, lingvomadaniy kod* terminlarining mazmun-mohiyati yoritilgan.

Kod termini o'z qo'llanish doirasiga ko'ra alohida mazmun kasb etadi; qaysi sohada qo'llanishiga ko'ra o'z ta'rifiga egadir. Hozirda kundalik hayotimizda kompyuter, telefon apparatidan barchamiz deyarli foydalanamiz. Bilamizki, kompyuter yoki telefon apparati egasi tomonidan kodlansa, undan o'zga kishi foydalana olmaydi. Ularni ishlatish uchun kodlangan qulfning kodini (kalitini, raqamini) bilish zarur. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *kod* so'zi "...istalgan axborotni uzatish, qayta ishlash va saqlash uchun qo'llanadigan, ma'lum tartibdagi shartli belgi, ramz (simvol)lar yoki signallar tizimi" (O'TIL, II, 2022:871) deb izohlangan. *Madaniy kod* termini XX asrdan boshlab deyarli barcha sohalarda faol ishlatilmoqda. *Kod* va *madaniy kod* haqidagi ma'lumotlarga tayanib ayta olamizki, *kod* so'zi insoniyatning qadim tarixida shu shaklda qo'llanmagan bo'lsa-da, biroq insoniyat tafakkurining izchil rivoji natijasida borliqni anglash, voqelikni idrok etish tamoyili shakllangach yuzaga kelgan. Ma'lumki, lingvomadaniy kod – lingvomadaniyatshunoslikning birligi. Lingvomadaniyatshunoslik esa til, tafakkur va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligini o'rganadigan soha. Aytish mumkinki, "tilning nomlash vazifasi tufayli tafakkuriy tushunchalar shakllanadi va farqlanadi"[26]. Lingvomadaniy kodlar madaniy kodlarning bir turi bo'lib, uning verballashgan ko'rinishidir. Lingvomadaniy kodlar tilda, asosan, xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi barqaror birliklarda voqelanadi. Lingvomadaniy kodlarda insonlarning moddiy va ma'naviy olam haqidagi tasavvurlari, milliy tafakkuri in'ikos etadi. Lingvomadaniy kodlar turg'un birliklarning shakllanishida asosiy o'rin tutadi. Masalan, somatik ligvomadaniy kodlar (*bosh, ko'z, qo'l, oyoq, jigar, o'pka, panja*) va zoomorf lingvomadaniy kodlar (*it, mushuk, qo'y, xo'roz*) ko'plab frazeologizmlarning shakllanishida asosiy komponent bo'lgan. Umuman olganda, har bir obrazli turg'un bog'lanish ma'lum bir lingvomadaniy kodga asoslanadi. O'zbek tili barqaror birliklarini shu nuqtayi nazardan o'rganib, uni lingvomadaniy kodlar asosida tasniflash orqali o'zbek tafakkurining modellarini yaratish, millatning lisoniy ongiga xos bo'lgan mexanizmlarni yoritish mumkin.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "**Barqaror birliklar lingvomadaniy birlik sifatida**" deb nomlangan. Unda ibora, maqol, topishmoq, o'xshatish, tasviriy ifoda barqaror lingvomadaniy birlik sifatida tadqiqqa tortildi. O'zbek tili barqaror birliklarining lingvomadaniy jihatdan o'rganilishi tilimizning ochilmagan qirralarini ko'rsatishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

---

[26] Одилов Ё. Тил ва тафаккурнинг ўзаро муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – № 6. – Б. 4.

Bobning "***Olamning lisoniy manzarasida iboralarning o'rni***" deb atalgan faslida iboralar haqidagi tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariy fikrlarga munosabat bildirildi va mazkur lisoniy birliklar lingvomadaniy birlik sifatida tahlilga tortildi. Iboralar o'zi tegishli xalqning tarixi, tafakkuri, dunyoqarashi hamda qadriyatlarining o'ziga xosligini yaqqol namoyon etish, fikrni yorqinroq ifoda etish, voqelikni obrazli tasvirlash vositasi ekanligi asoslandi.

Iboralar, birinchidan, til birligi sifatida muayyan tushunchani ifodalash xususiyatiga ega bo'lsa, ikkinchidan, har bir xalqning ko'p asrlik turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari va an'analarini aks ettiruvchi, shu bilan bir vaqtda muayyan holat, voqelik ifodasining obrazli, ta'sirchan bo'lishini ta'minlovchi vosita ham hisoblanadi. Xalqimizda oilada bir inson olamdan o'tsa, oila a'zolari uni eslab, duo qilib, uning uy-joyini obod qilib o'tirishadi. Bu holat *chirog'ini yoqmoq* frazemasi orqali ifodalanadi. *Chirog'ini yoqmoq* iborasidagi *chiroq* narsa-buyum lingvomadaniy kodi aloqadorlik ma'nosini anglatib, ya'ni uyni yorug' qilmoq – yaqin kishisi olamdan o'tgan insonni yolg'izlatmaslik, ko'nglini ko'tarib turish, unga dalda bo'lish ma'nolarini o'zida aks ettiradi. *O'g'il yoqqan chiroqni qiz ham yoqar* maqoli fikrimizni yanada isbotlaydi.

Qo'y lingvomadaniy kodi qo'yning boshqa uy hayvonlariga nisbatan yuvoshligini o'zida ifodalab, u vositasida beozor, mo'min kishilar xarakteri tasvirlanadi. *Qo'y* lingvomadaniy kodi asosida hosil bo'lgan *Qo'y og'zidan cho'p olmaslik* iborasi ham *nihoyat darajada beozor, mo'min* ma'nosini anglatadi.

"***Xalq maqollarida lingvomadaniy kodlarning voqelanishi***" faslida maqollar lingvomadaniy birlik ekanligi, ularning tarkibidagi lingvomadaniy kodlar maqollardagi madaniy mazmunning voqelanishida tayanch vazifani bajarishi yoritildi.

Xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kunda tilshunoslikda lingvomadaniy izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanmoqda. Har bir maqol xalqning turmush tarzini qisqa va lo'nda, umuman olganda, to'laligicha ifodalay oladigan ko'zgudir. Nutqda ko'p qo'llanuvchi *Asal aynimas, sariyog' sasimas* maqolida *asal, sariyog'* oziq-ovqat lingvomadaniy kodlari eng yaxshi fazilatlar egasi bo'lgan haqiqiy inson ma'nosida qo'llangan. Bunda odob-axloqi, sabr-u irodasi, yillar davomida orttirgan hayot tajribasi bilan ma'naviy kuch-qudratga erishgan mukammal inson qanchalab mehnat evaziga etishtiriladigan asal-u sariyog'ga o'xshatilgan. *Asal, sariyog'* oziq-ovqat lingvomadaniy kodlari vositasida mukammal insonning turmush qiyinchiliklarida yengilmasligiga, har qanday sinovlarda "aynmas, sasimas"ligiga ishora qilingan.

O'zbek xalq maqollarida *arslon, echki, qarg'a, toycha, ari, ilon, it, bo'ri, eshak, sichqon* kabi so'zlar xalq tajribasi natijasida yuzaga kelgan xulosalarni metaforik mazmun shaklida ifodalashda lingvomadaniy tayanch vazifasini bajaradi. Masalan: *Har toycha o'zi suv ichgan bulog'ini maqtar*; *Yuki yengil eshak yotag'on bo'lar; Arslon bolasi arslon bo'lur, Sichqon bolasi – sichqon; Arslonning o'ligi – sichqonning tirigi*; *Go'ngqarg'a bo'lib ming yil yashagandan, Sher bo'lib bir yil yashagan afzal*; *Echki yuzga yetmas, Yuzga yetsa ham kuzga yetmas; Podshoh qarg'a bo'lsa, eganing go'ng bo'lar; Yomon ilon tegirmon boshida*

aylanar; Burgaga achchiq qilib, ko‘rpaga o‘t qo‘yma; *It hurar, karvon o‘tar.* Bunday maqollarni tushunishning asosiy sharti ushbu so‘zlar ortida yashiringan ma’noni, madaniy kontekstni anglash, ya’ni lingvomadaniy kodlar mohiyatini tushunishdan iborat.

Bobning uchinchi fasli “***Topishmoqlarning lingvomadaniy xususiyati***” deb nomlanadi. Topishmoqlar tilshunoslikda turg‘unlashgan barqaror birlik sifatida o‘rganiladi. Ularning tilini, lingvomadaniy xususiyatini o‘rganish ham o‘zbek tilining o‘ziga xos qirralarini yoritishda, belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

Topishmoqlarning lingvomadaniy nuqtayi nazardan yondashib berilgan ta’rifi D.Xudoyberganovaning lug‘atida qayd etilgan: “Til sohiblarining milliy-obrazli tafakkur tarzini va aksiologik munosabatini namoyon etuvchi, aksariyat hollarda lingvomadaniy kodlar vositasida shakllantirilgan, topilishi talab etiladigan narsa yoki hodisani boshqa narsa yoki hodisaga o‘xshatish, o‘zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavdalantiriladigan, she’riy yoki nasriy shakldagi janr; olam lisoniy manzarasining kichik bir qismi”[27]. Ma’lumki, topishmoqlarda tasvir obyekti yoki aytilmoqchi bo‘lgan fikr yashirin tarzda beriladi. Topishmoq javobini topish uchun uning til xususiyatlarini, undagi obrazli metaforik ifodani anglamoq, tayanch vazifani bajarayotgan lingvomadaniy kodni “ochmoq” zarur. O‘zbek xalq topishmoqlarida o‘zbek voqeligi, o‘zbek tabiati ifodalanadi. O‘zbek xalqi yaratgan topishmoqlar uning ijtimoiy hayoti va turmushining barcha tomonlarini qamrab oladi. Ularning katta qismi dehqonchilik, polizchilik, uy yumushlari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘simliklar va hayvonot dunyosini, uy xo‘jaligiga oid ko‘plab narsalarni, xalq hayotini, turmush tarzini, urf-odatlarini ham yorqin aks ettiradi.

O‘zbek xalq topishmoqlari olamning lisoniy manzarasini yaratish usullari bilan boshqa barqaror birliklardan alohida ajralib turadi. Ularda antropomorfizm, lingvomadaniy kodlarning rang-barangligi, qiyoslash va metaforiklik (метафоричность) yuqori darajada amal qiladi. Masalan: *Bir qozondan qirq tuya suv ichadi* (*Chuchvara*); *Qorong‘u uyda O‘ttiz sadaf* (*Og‘iz, tish*); *Oq sandiq, og‘zi yo‘q sandiq* (*Tuxum*); *Katta xotin uy poylaydi, kichkina xotin yo‘qlovga ketadi* (*Qulf, kalit*); *Zar gilam, zar-zar gilam, Ko‘taray desam og‘ir gilam* (*Yer*) topishmoqlarida o‘zgacha tasvir ifodalangan.

Topishmoqda til sohiblarining olamni idrok etishdagi milliy o‘ziga xoslik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, *Ko‘k ko‘ylakka G‘o‘za yoydim* (*Osmon, yulduzlar*) topishmog‘ida osmon ko‘k ko‘ylakka, yulduzlar g‘o‘zaga yoki *O‘ttiz ikki bo‘ri bir bir joyga makon qo‘ydi, O‘nta xizmatkor, ikkita qarovul qo‘ydi* (*Tish, barmoqlar, ikki ko‘z*) topishmog‘ida tishlar bo‘rilarga, barmoqlar xizmatkorga, ko‘zlar qorovulga o‘xshatilib gavdalantirilgan bo‘lsa, *Ustidagi ko‘ylagi, Xuddi qog‘ozga o‘xshar. To‘g‘rasang, jahli chiqib, ko‘zingni darrov yoshlar* (*Piyoz*) topishmog‘ida yashiringan narsaning, ya’ni piyozning ko‘rinishi, alohida belgisi qiyoslangan. *Yer ostida oltin qoziq* topishmog‘ida topishmoq javobi – *sabzi* qoziqqa taqqoslangan. Sabzining bir necha belgilari taqqoslanish orqali

---

[27] Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B. 83.

18

tavsiflangan. Ya'ni sabzining shaklan qoziqqa o'xshashi, uning rangi oltinni eslatishi va uning yer ostida o'sishi uyg'un tarzda qayd etilgan.

Voqelik unsurlariga ijobiy yoki salbiy munosabatni aks ettirish ham topishmoqlarga xos xususiyatdir. "O'zbek xalq topishmoqlaridan birida insonning ismi qamchiga qiyoslanadi. Bu qamchi oddiy qamchi emas, zar qamchidir. U asrlar davomida ham chirimaydi: *Otam bergan zar qamchi Ming yilda ham chirimas (Ism)*. Ko'rinadiki, ushbu topishmoqda xalqning ismlarni avloddan avlodga meros sifatida olib o'tishi, milliy qadriyat sifatida ardoqlanishi o'z aksini topgan"[28].

Bobning to'rtinchi fasli *"O'xshatishlarda kodlangan axborotning ifodalanishi"* deb atalib, xalqning milliy tafakkuri uning o'xshatishlarida ham reallashishi bayon qilingan. Ma'lumki, dunyo tillarining barchasida turg'un o'xshatishlar mavjud. Bu barqaror birlik o'zi mansub millat madaniyatining o'ziga xosligini u yoki bu tarzda namoyon qiladi. Tilshunos olim N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "…obrazli ifodalar xalqning obrazli nigohi, idroki va tafakkuri mahsuli o'laroq dunyoga keladi"[29]. Obrazli tafakkur tarzining mahsuli bo'lgan o'zbek tili turg'un o'xshatishlari ham o'zbek xalqining idroki va tafakkuri hosilasidir. O'xshatishlar uchun asos qilib olinadigan obrazlar inson hayotining an'anaviy turmush tarzi va faoliyati bilan bog'liq. Obraz yorqin bo'lishi uchun u dolzarb, lisoniy jamoaning barcha a'zolari uchun tushunarli bo'lishi lozim. Obrazli kod vazifasini reallikning har qanday hissiy qabul qilinadigan qismi bajarishi mumkin: landshaft, osmon jismlari, tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonlar, inson tanasi a'zolari, artefaktlar (xo'jalik buyumlari, mehnat qurollari, qurol, uy-joy), shuningdek, ular bilan sodir bo'ladigan hodisalar.

Aytish joizki, o'xshatishlarda biomorf lingvomadaniy kodlar orqali insonning deyarli barcha xususiyatlari: tashqi ko'rinishi, xatti-harakati, fe'l-atvori to'kis aks ettiriladi.

O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqini amalga oshirgan F.Usmonov o'xshatishlar uchun asos vazifasini o'tagan obrazlar, ya'ni lingvomadaniy kodlarni o'rganib, o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlarda eng ko'p qo'llanuvchi etalon leksemalar maishiy turmush realiyalarini ifodalovchi narsa-buyum lingvomadaniy kodlari bilan bog'liqligini qayd etadi. Tadqiqotda "o'xshatishlarda aks etuvchi lingvomadaniy kodlar maishiy turmush realiyalari (115 ta), fauna (83 ta), flora (41 ta), tabiat hodisalari va unsurlari (61 ta), inson (61 ta), diniy, mifologik va folklor personajlari hamda boshqalar (62 ta) guruhlariga kiruvchi etalonlar"[30] misolida aniqlangan .

O'xshatishlarda kodlangan mazmunni anglash uchun ko'p hollarda o'xshatish etaloni haqidagi etnik stereotiplar – turg'unlashgan tasavvurlardan boxabar bo'lish taqozo etiladi. Masalan, *mehmonday e'zozlamoq* o'xshatishini anglash uchun o'zbeklar uchun mehmon eng qadrli va izzatli shaxs hisoblanishini, bu doimiy stereotipga aylanganini bilish lozim bo'ladi. Bu kabi milliy-madaniy o'ziga

---

[28] Худойберганова Д. Ўзбек лингвомаданиятшунослигининг устувор вазифалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – № 5. – Б. 7–8.
[29] Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 3–8.
[30] Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 12.

xosliklar *paxtaday oq*, *tulkiday ayyor*, *bulbulday sayramoq*, *sandiqdek katta*, *do‘ppidek tor*, *tandirdek qizimoq*, *musichaday beozor*, *qo‘ydek yuvosh*, *atlasday tovlanmoq* kabi ko‘plab o‘xshatish qurilmalarida o‘z aksini topgan.

Bobning **“Tasviriy ifodalar – lingvomadaniy birlik maqomida”** deb nomlangan faslida tasviriy ifodalar til boyligi bo‘lib, bular ham o‘zi mansub xalqning madaniyatini yaqqol namoyon qilishi tadqiq qilingan. “Dunyo tilshunosligida turg‘un so‘z birikmalari hali me’yor darajasida o‘rganilgani yo‘q. Hozirgacha parafraza, tarkibli atamalar, murakkab terminlar va ularning idiomatik ma’noli turlari frazema nomi bilan ozmi-ko‘pmi o‘rganilib kelinmoqda”[31]. Bu haqda o‘zbek tilidagi ayrim adabiyotlar[32]da, tadqiqot ishlari[33]da, ayrim maqolalar[34]da ma’lumotlar kuzatildi. Jumladan, sof turg‘un so‘z birikmalari (tarkibli atama va murakkab terminlar, parafrazalar) ham, ularda idiomatik ma’no kuzatilmasa-da, frazema maqomida talqin etilmoqda[35].

Parafraza haqida A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da quyidagi izoh keltirilgan: “Narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma’lum kontekst, situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom. Masalan, *dala malikasi (makkajo‘xori)*”[36]. M.Mirtojiyevning ta’kidlashicha: “Parafrazalar ma’lum bo‘lagi yoki bo‘laklari ko‘chma ma’noda bo‘lib, ular ma’nosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug‘aviy birlikdir”[37].

O‘zbek tilshunosligida parafrazalarni monografik tarzda ilk bor I.Umirov o‘rgangan[38]. Olim tadqiqotida parafrazalarning nutqiy hodisa ekanligi haqida fikr yuritgan. Parafrazalarning turlarini aniqlab, ularning tabiati, mohiyatini ochib bergan. Shuningdek, parafzalarning hosil bo‘lishi, yondosh hodisalarga munosabati, uning tasnifi kabi masalalarni yoritib bergan. D.Aytboyev esa “O‘zbek tilidagi perifrazalarning motivlashuvi va leksikografik talqini”[39] mavzusidagi ishida asosiy e’tiborini perifrazalarning motivlashuvi hamda leksikografik talqiniga qaratgan.

Tasviriy ifodalar bir qancha xususiyatlari bilan iboraga yaqin turadi, undagi nominatsiya faqat bir so‘zga teng bo‘lganligi bois bevosita leksikologiyaning obyekti sifatida qabul qilinadi. Ibora va perifrazalar yaqinligini quyidagi misollar

[31] Шодиев С. Турғун сўз бирикмаларининг синтактик деривацияси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) … дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – Б. 5.

[32] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002; Йўлдошев М. Бадиий матнинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007. – Б. 101.

[33] Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) … дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 159; Шодиев С. Турғун сўз бирикмаларининг синтактик деривацияси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 46 б.

[34] Одилов Ё. Тасвирий ифода – бетакрор истифода // Тил ва адабиёт таълими – Тошкент, 2015. – № 9. –Б.48–49; Қодирова З. Перифраза – образли идрок маҳсули // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2019. – Б. 54–57; Юсуф Б. Навоий асарларида парафразалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2020. – № 1. – Б. 77–80; Ахмадова У. Перифраза ва сўз // Innovative achievements in science. – Тошкент, 2020. – Б. 695–698.

[35] Шодиев С. Турғун сўз бирикмаларининг синтактик деривацияси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) … дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – Б. 5.

[36] Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент, 1985. – Б. 67.

[37] Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2000. – Б. 42.

[38] Умиров И. Ўзбек тили парафразалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 24 б.

[39] Айтбоев Д. Ўзбек тилидаги перифразаларнинг мотивлашуви ва лексикографик талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.

bilan dalillashga harakat qilamiz: "1. Har ikkalasi ham badiiy boʻyoqdorlikka ega: *bagʻri tosh* (ibora), *moʻyqalam sohiblari* (tasviriy ifoda). 2. Har ikkalasi ham kamida ikki qismdan iborat boʻlishi kerak: *yerga ursa osmonga sapchiydi, gʻazal mulkining sultoni*"[40].

Bu maʼlumotlarga tayanib ayta olamizki, tasviriy ifodalar (parafrazalar) barqaror birlikdir. Bu birlik ham dastlab yakka shaxs tomonidan yaratilib, vaqt oʻtishi bilan, ehtiyojga koʻra ommalashadi. Xalq nutqida turgʻun shaklda qoʻllanilib, keyinchalik uning til boyligiga aylanadi. Quyidagi tasviriy ifodalar fikrimiz isbotidir. *Amiri kabir* – Alisher Navoiy, *bahor darakchisi* – boychechak, *bahor elchisi* – qaldirgʻoch, *baland choʻqqilar xoʻjayini* – burgut, *baraka urugʻi* – chigit, *bilim bulogʻi* – kitob, *dala malikasi* – makkajoʻxori, *dehqonning qanoti* – traktor, *ekinning qoni* – suv, *falakning gardishi* – taqdir taqozosi, *hayotimiz qomusi* – Konstitutsiya, *ilm kaliti* – kitob va hokazo.

Lingvomadaniy kodlarning antropomorf lingvomadaniy kod, narsa-buyum lingvomadaniy kod turlari tasviriy ifodada koʻp kuzatildi. Masalan, antropomorf lingvomadaniy kodlar: *Malik ul-kalom* – Lutfiy, *Malikush-shuaro* – Muhammad Solih, *mavjudodlar sultoni* – inson, *moʻyqalam sohibi* – rassom, *Odam ush-shuaro* (*shoirlar odam atosi*) – Rudakiy, *oq chashma sohibalari* – sut sogʻuvchilar; narsa-buyum lingvomadaniy kodlari: *davlat ustunlari* – hukumat rahbarlari, *ilm kaliti* – kitob, *koʻkning fonusi* – oy, *kumush choyshab* – qor, *kumush tola* – pilla (ipak), *oq oltin* – paxta, *qora oltin* – neft, koʻmir, *Sharqning oltin darvozasi* – Toshkent kabi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **"Oʻzbek tilida asosiy lingvomadaniy kodlarning ifodalanishi"** deb nomlangan. Mazkur bobda oʻzbek tili barqaror birliklaridagi asosiy lingvomadaniy kodlar tahlilga tortilgan.

Ilmiy adabiyotlarda lingvomadaniy kodlarning turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, narsa-buyum kodi, biomorf kod, maʼnaviy kod, antropomorf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, meʼmoriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi, mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi kabilar qayd etiladi. Lingvomadaniyatshunoslikda *asosiy lingvomadaniy kodlar* termini mavjud boʻlib, uni V.V. Krasnix sohaga tatbiq etgan. "Asosiy lingvomadaniy kodlar eng qadimiy va insonning nutqiy faoliyatida eng koʻp qoʻllanadigan kodlar boʻlib, narsa-buyum madaniy kodi, biomorf madaniy kodi, makon madaniy kodi, maʼnaviy madaniy kod, somatik madaniy kod, vaqt madaniy kodi"[41] ushbu tushuncha doirasiga kiritilgan .

Mazkur bobning "***Somatik lingvomadaniy kodlar***" deb nomlangan birinchi faslida somatik kodlar lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortildi. Lingvomadaniy kodlarning eng keng tarqalgan turlaridan biri somatik lingvomadaniy koddir. Ushbu termin adabiyotlarda "antropomorf kod, tanaga oid kod, fiziologik-jismoniy kod"[42] deb ham yuritiladi. Biz esa inson organizmi aʼzolarini anglatuvchi tayanch qism boʻlgan lingvomadaniy kodlarni *somatik lingvomadaniy kod* termini ostida tadqiq qildik.

[40] Қодирова З. Перифраза – образли идрок маҳсули // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2019. – Б. 54–57.
[41] Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: МАКС Пресс, 2001. – С. 6.
[42] Красных В.В. Koʻrsatilgan maqola. – В. 6.

Somatik lingvomadaniy kodlar insoniyatning qadimgi tafakkur usullaridan birini namoyon qiladi. Ya'ni bunda inson o'z ichki olami yoki tashqi voqelik unsurlarini o'z tana a'zolari haqidagi tushunchalar vositasida ifodalaydi. Buni o'zbek tilida *ko'z, bosh, qo'l* so'zlarining iboralarda asosiy komponent bo'lib kelganligi ham isbotlaydi. O'zbek lingvomadaniyatida *qo'l, ko'z, bosh, yurak, til, og'iz, qosh, burun* kabi so'zlar barqaror birliklarda lingvomadaniy mazmunning shakllanishida asosiy o'rin tutganligi kuzatildi.

Mazkur so'zlar qatnashgan frazemalar somatik iboralar deb ataladi. A.Isayevning ta'kidlashicha, turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida somatik so'zlar juda mahsuldor. "Birgina *bosh* somatizmi orqali turkiy tillarda 160 ta frazeologizm tuzilgan"[43].

Bir kalla – kalla, Ikki kalla – tilla; *Besh qo'l barobar emas*; *Ko'p og'iz ko'p gapirar*; *Besh barmoqning birini tishlasang, bari og'rir*; *Ey til, yaxshilikni bil*; *Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi*; *Egilgan boshni qilich kesmaydi* maqollarida *kalla, barmoq, til, o'pka, bosh* somatik lingvomadaniy kodlari odam, kishi ma'nosini ifodalaydi. *Beli og'rimagan bel bo'lmas, Birovning xizmatin bilmas* maqolida *bel* somatik lingvomadaniy kodi *og'rimagan* so'zi bilan birga ish-yumushga qayishmagan, mehnatdan qochgan odamga ishora qiladi.

Yo'lda yursang tuya ishlat, Elda yursang – miya maqolida tuya bilan miya tenglashtirilib, kishiga biror ko'zlangan manzilga yetishishida tuyaning katta yordami tegishi, turmush tarzida esa miya (aql)ning o'rni muhimligi ta'kidlangan. *Miya* somatik lingvomadaniy kodi metonimik tarzida aqlni, mustaqil fikrni ifodalaydi.

Quduqqa sochimni yoydim (*Ugra*) topishmog'ida *soch* somatik lingvomadaniy kodi topishmoq javobi bo'lgan ugraning badiiy ifodasidir. *Soch* somatik lingvomadaniy kodi vositasida ugraning soch tolasiga o'xshab uzun va ingichka bo'lishi tasvirlangan.

Otga boqma, to'nga boq, Ichidagi jonga boq maqolida insonning tashqi ko'rinishiga – suratiga emas, balki siyratiga – aql-zakovati, bilimi va qobiliyatiga qarab baholamoq lozimligi uqtirilgan. Bunda *ot* zoomorf lingvomadaniy kodi mol-dunyo, amal-martaba, *to'n* narsa-buyum lingvomadaniy kodi amal-martabali kishining tashqi ko'rinishini, *jon* somatik lingvomadaniy kodi insonning siyratini anglatadi.

Bobning "***Narsa-buyum lingvomadaniy kodlari***" deb nomlangan ikkinchi faslida narsa-buyum lingvomadaniy kodlari tahlilga tortildi. O'zbek tili barqaror birliklarida narsa-buyum lingvomadaniy kodlari ko'p kuzatildi. Jumladan, *beshik* narsa-buyum lingvomadaniy kodi yoshlik; vatan, yurt, makonni: *Beshikda tekkan, kafanda ketar; Ona yurting – oltin beshiging; Elning ichi – oltin beshik; O'z yurting – o'lan to'shaging, O'zga yurt bo'lmas beshiging*; *ko'rpa* narsa-buyum lingvomadaniy kodi vatan, yurtni: *Ko'rpang qayerda bo'lsa, Ko'ngling shu yerda*; *kaltak* narsa-buyum lingvomadaniy kodi tarbiya, pand-nasihatni: *Ahmoqqa – kaltak, donoga – ishorat*; *qaychi* narsa-buyum lingvomadaniy kodi qirquvchi,

---

[43] Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1977. – С. 6.

ayiruvchi narsani: *Qarz – muhabbatning qaychisi; kema* narsa-buyum lingvomadaniy kodi biror bir tadbir, qiyinchilikni: *Kemaga tushganning joni bir*; *pichoq* narsa-buyum lingvomadaniy kodi keskirlikni: *Ota so'zi – pichoq, Ona so'zi – qumaloq*; *tegirmon, tovoq* narsa-buyum lingvomadaniy kodi ro'zg'orni: *Tegirmoningni o'zing tort; Mehnat tovoq to'ldirar, Minnat tog' kuydirar*; *ketmon, o'roq, ter, non* narsa-buyum lingvomadaniy kodi mehnatni: *Ketmon chopdim – non tishladim; O'roq o'rmoq – o'ynamoq; Nonni tandirning qizig'ida yop; Kumushdek ter to'ksang, Gavhardek dur olarsan; do'ppi, to'n* narsa-buyum lingvomadaniy kodlari boylikni: *Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar; Omon bo'lgan ot minar, Ola parcha to'n kiyar* ifodalaydi. Bu kabi barqaror birliklarni kuzatish shundan dalolat beradiki, o'zbek lingvomadaniyatida uy-ro'zg'or buyumlarini bildiruvchi so'zlar narsa-buyum lingvomadaniy kodi sifatida ko'p uchraydi. Bu til sohiblarining uy-ro'zg'or ashyolarining boshqa predmet va hodisalar bilan mushtarak tomonlarini yaxshi ilg'aganidan va mazkur qiyosni o'z nutqi orqali ifodalashga ko'proq e'tibor qaratganligidan dalolat beradi.

Bobning "**Makon lingvomadaniy kodlari**" deb atalgan uchinchi faslida makon lingvomadaniy kodlarning lingvomadaniy xususiyati yoritildi. Makon lingvomadaniy kodi ham lingvomadaniyatshunoslikda asosiy kodlardan biri hisoblanadi. Makon lingvomadaniy kodi mantiqiy ravishda vaqt lingvomadaniy kodiga bog'liq, chunki zamon va makon tushunchalari inson shuurida assotsiativ tarzda anglanib, bir-birini taqozo etadi.

O'zbek xalq maqollarida makon lingvomadaniy kodlari ham o'z o'rniga ega. O'zbek lingvomadaniyatida *uya, bog', tog', bozor, yurt* kabi so'zlar makon lingvomadaniy kodi sifatida ko'p qo'llanadi. Masalan: *Boqsang – bog', boqmasang – tog'; Bog'bonga tog' yarashmas, Biyobonga – bog'; Bog'ni boqsang – bog' bo'lur, Botmon dahsar yog' bo'lur; Arslonni ovlamoq uchun arslon uyasiga kirmoq kerak; Qush uyasida ko'rganini qiladi; Otang – bozor, onang – bozor* kabi.

Yomg'ir yog'sa to'ning ho'l bo'lar, otang o'lsa, uying cho'l bo'lar maqolida *cho'l* makon lingvomadaniy kodi fayzsiz xonadonni ifodalagan. Aytilmoqchiki, ota bo'lgan joy – gullab-yashnagan obod makon, yashil daraxtlar bilan burkangan bog', otasizlik – cho'l-u sahro, ya'ni mehrga tashnalik demakdir. *Cho'l* makon lingvomadaniy kodi vositasida ota farzandi uchun suyanch, mador ekanligi, uni borida qadrlash lozimligi, agar buning aksi bo'lsa, farzand hayoti ota tirikligidagiday emas, balki armon bilan o'tishi ta'kidlangan.

O'zbek tili barqaror birliklarida *ko'l, o'rmon, to'qay, bog', tom, uya, devor* makon lingvomadaniy kodlari tug'ilgan joy, vatan, oila ramzi sifatida ifodalanadi. Jumladan, *Elidan bezgan er o'ngmas, Ko'lidan bezgan g'oz o'ngmas; Yolg'iz daraxt o'rmon bo'lmas; To'qayga o't tushsa, ho'l-u quruq baravar yonar; Baxtli bilan bahslashma, Tomlik bilan tenglashma; Baxilning bog'i ko'karmas; Yomondan dog' qoladi, yaxshidan bog' qoladi; Qush uyasida ko'rganini qilar* maqollari va *to'rt devor ichida yashamoq* iborasi bunga dalildir.

O'zbek xalq topishmoqlarida ham makon lingvomadaniy kodlari kuzatildi. Masalan: *Bir hujra, Bir hujraning ichida hujra, Qirq hujraning ichida mullabachchalar* (*Anor va uning donachalari*) topishmog'ida anor va uning oq mayin parda bilan o'ralgan qismlari *hujra* makon lingvomadaniy kodi bilan, anor

mevasi donalari *mullabachchalar* antropomorf lingvomadaniy kod orqali yorqin tasvirlangan. Bu topishmoq Uvaysiyning mashhur anor haqidagi chistonini yodga soladi. Ma'lumki, bu chistonda *gumbaz* so'zi lingvomadaniy kod vazifasini bajarib kelgan edi.

Bobning to'rtinchi fasli "***Vaqt lingvomadaniy kodlari***" deb ataladi. Bunda o'zbeklar uchun vaqt – eng g'animat, qadrli narsalardan biri ekanligi haqida fikr yuritildi hamda vaqtni atovchi birliklar lingvomadaniy kod bo'lib kelgan barqaror birliklarning xususiyati yoritildi. Vaqt lingvomadaniy kodining barqaror birliklarda ifodalanishi o'quvchiga kuchli ta'sir etadi va u vositasida mazmun chuqurroq anglashiladi. *O'tmish* va *kelajak*, *daqiqa*, *lahza*, *on*, *kun-u tun*, *bugun* va *erta* so'zlari *vaqt* so'zi atrofida birlashadi.

Dono xalqimiz vaqtni o'tkinchi hodisa deb bilib, undan oqilona foydalanish lozimligini ta'kidlaydi. O'zbek tili sohiblari ongidan vaqtga doir bir qator stereotiplar o'rin olgan. Jumladan, o'zbeklar uchun *Vaqt – oqar suv*, u odamning ko'z o'ngida tezlik bilan "oqib o'tadi". Vaqtdan iborat umrning o'z "fasllari" bor – *umr bahori*, *umr kuzi*. Shuningdek, uning ertasi va oqshomi ham bor – *umr oqshomi*. Vaqt – eng qimmatli narsalardan biri, turli jarayonlar bu qimmatbaho narsani "o'g'rilashi" mumkin: *Qimmatli vaqtlarini ayamasdan ishimni o'qib chiqqanlari uchun hurmatli opponentimga o'z tashakkurimni bildiraman* (Dissertantlar nutqidan); *Bu ortiqcha ishlar vaqtimni o'g'riladi* (So'zlashuvdan). O'zbeklar uchun vaqt – eng g'animat, qadrli narsalardan biridir: *Vaqting ketdi – naqding ketdi*. *Vaqtni boy bermaslik* insonning asosiy maqsadlaridan biri bo'lmog'i lozim. Biz kuzatgan barqaror birliklarda mana shu tasavvurlar turli lingvomadaniy kodlar vositasida o'z aksini topgan. Jumladan, *Vaqt g'animat, O'tsa – nadomat* maqolida ham vaqtning qimmati va o'tkinchi ekanligi, shuningdek, o'z vaqtida qilinmagan ish uchun afsus chekilishi mumkinligi haqida so'z borgan. Kishi umrining hamma soatlarini, hattoki daqiqalarini foydali narsalarga bag'ishlashi lozim, shundagina baxtiyor yashashga erishadi. *O'tgan kun topilmas*, *Kelar kun sotilmas* maqolini ham ushbu fikrlarning dalili sifatida ko'rishimiz mumkin.

Kayfiyati buzuq ma'nosiga teng *ta'bi xufton* iborasida *xufton* vaqt lingvomadaniy kodi ko'ngil g'ashligi ma'nosini ifodalaydi. O'zbek tilida *yetti* (*to'qqiz*) *xufton* iborasi kunning zimiston vaqtini ifodalaydi. *Umr shomi* iborasida esa *shom* vaqt lingvomadaniy kodi shu ma'nolarni bildirib, umrning oxirgi, tugash pallasi shom paytiga o'xshatilgan. Ushbu *shom* vaqt lingvomadaniy kodi xalqimizning inson umrini to'rt fasl: bahor, yoz, kuz, qishga qiyoslashiga o'xshab ketadi. Ya'ni bolalik bahorga, yigitlik (o'rta yoshlik davri) yozga, keksalik kuzga, qarilik qishga qiyoslanganidek, inson umrining so'nggi pallalari shom paytiga o'xshatilgan.

Kuni bitmoq iborasida *kun* vaqt lingvomadaniy kodi umr ma'nosini anglatadi.

Butamasang – meva oz, Butasang – yeysan qish-u yoz maqolida *qish-yoz* vaqt lingvomadaniy kodi *hamisha*, *doimo* ma'nolarini o'zida aks ettiradi.

Umr bahori, *hayot bahori*, *sevgi bahori* birliklarida paytni bildiruvchi *bahor* vaqt lingvomadaniy kodi umrning, hayotning yashnagan, kamolga yetgan payti, shunday chog'lar ramzidir. *Yaxshi xotin – hamisha bahor* maqolida esa *bahor* vaqt

lingvomadaniy kodi baraka timsolidir. *Bahor* vaqt lingvomadaniy kodi vositasida fayzlilik, go'zallik kabi assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi.

Bobning "***Ma'naviy lingvomadaniy kodlar***" deb nomlangan faslida ma'naviy lingvomadaniy kodlarning lingvomadaniy xususiyati yoritilgan. Ma'naviy lingvomadaniy kodlar insonning ma'naviy-axloqiy qarashlari va u bilan bog'liq tushunchalarni nomlovchi lisoniy birliklar vositasida voqelanadi. O'zbek tili barqaror birliklari fondida oila hamda u bilan bog'liq tushunchalar tayanch qism bo'lgan ma'naviy lingvomadaniy kodlar kuzatildi: Masalan, *Oila – qo'sh ustunli ayvon*; *Er-xotin – qo'sh ho'kiz*. *Oila – qo'sh ustunli ayvon* maqolida "Qo'sh ustunning biri olib tashlansa, ayvon qulab tushgani kabi, ersiz yo xotinsiz ro'zg'or ham ro'zg'or bo'lmay qolishi"[44] uqtirilgan. Oila qo'sh ustunli ayvonga o'xshatilgan. *Er-xotin – qo'sh ho'kiz* maqolida oila boshliqlari – er-xotin esa qo'sh ho'kizga o'xshatilgan. Biroz qo'polroq o'xshatish bo'lsa-da, aytilmoqchi bo'lgan fikr teran ifodalangan. Bunda "Qo'sh ho'kiz omochni teng tortgani singari, er-xotin ham uy-ro'zg'or ishlarini baravar qilishi, tirikchilik "yuki"ni barobar tortishi, bir-biriga ko'maklashishi, hamkorlik qilish"[45] kerakligi ta'kidlangan.

Kitobsiz aql – qanotsiz qush maqolida *aql* ma'naviy lingvomadaniy kodi insonni anglatadi. Ushbu maqolda aql egasi, ya'ni insonning ma'naviyatini boyitishda kitobning ahamiyati kattaligi ko'rsatilgan. Kitobsiz aql egasi qanotsiz qushga o'xshatilgan.

Tadqiqotning to'rtinchi bobi **"O'zbek tilida biomorf lingvomadaniy kodlarning ifodalanishi"** deb nomlanadi. O'zbek tili barqaror birliklarining bir qanchasida asosiy lingvomadaniy kodlarga kiruvchi biomorf lingvomadaniy kodlar tayanch qism bo'lganligi kuzatildi. Shuni inobatga olib, ushbu bobda biomorf lingvomadaniy kodlar alohida tadqiq qilindi.

Biomorf lingvomadaniy kodlar 3 guruhga ajratildi. 1. Hayvonot olami bilan bog'liq kodlar – zoomorf lingvomadaniy kodlar. 2. O'simliklar dunyosi bilan bog'liq kodlar – fitomorf lingvomadaniy kodlar. 3. Odam yoki unga tegishli bo'lgan harakat- xususiyatlarni bildiruvchi antropomorf lingvomadaniy kodlar.

Ushbu bobning "***Zoomorf lingvomadaniy kodlar***" deb atalgan faslida zoomorf lingvomadaniy kodlar xususiyati yoritildi. Biomorf lingvomadaniy kod "Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da "Muayyan madaniy axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan odamga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga tegishli tushunchalarni anglatuvchi so'z (yoki so'zlar, so'z birikmasi) tayanch komponent bo'lgan lisoniy (nutqiy) birlik; lingvomadaniy kod turlaridan biri. Ushbu kodning antropomorf kod (q.), zoomorf kod (q.) va fitomorf kod (q.)lardan iborat 3 ta kichik turi bor"[46] deb izohlangan.

O'zbek tilida qadimdan hozirgi kungacha nafaqat hayvonlar, balki, ularning harakati va holatida ham obrazli tasavvur imkoniyatlari keng bo'lib, bu xususiyat, ayniqsa, barqaror birliklarda aks etadi va etnos tabiatini to'laqonli ochib bera oladi.

---

[44] Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018. – Б. 401.
[45] Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ko'rsatilgan kitob. – B. 401.
[46] Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B. 17.

Zoonim komponentli frazeologik birliklarning rivojlanishi insonlarning hayvonot olami xususidagi totemistik qarashlari va turmush tarziga borib taqaladi. O‘zbeklar, asosan, chorvachilikning mol boqish turi bilan shug‘ullangan. Bu jarayon uning tilida ham aks etadi. Asosan, zoomorf lingvomadaniy kodlar jonli mavjudotlarni ifodalashga xizmat qiladi hamda til sohiblarining bu xususidagi tasavvurlarini o‘zida yaqqol gavdalantira oladi. Shu ma’noda zoomorf lingvomadaniy kodli barqaror birliklarni o‘rganish o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi.

O‘zbek madaniyatida yangi uyga ko‘chib kirishda hovli darvozasiga otning taqasi qoqiladi. Bu bilan xonadon turmushi ot taqasiday mustahkam, mol-holga boy-badavlat bo‘lishi niyat qilinadi. Uy hayvoni bo‘lgan ot o‘zbek millati uchun salomatlik ramzi bo‘lib ham xizmat qiladi. Bu munosabat sog‘lig‘i yaxshilanayotgan bemorning *otdayman* so‘zini qo‘llashida ham ko‘rinadi.

O‘zbek tili barqaror birliklarida *ot* zoomorf lingvomadaniy kodi sadoqatli hamroh, madadkor yo‘ldosh, *it* zoomorf lingvomadaniy kodi esa xiyonatkor, jafokor, ikkiyuzlamachi hamda nafs, ochko‘zlik, kibr, gina, hasad kabi qator illatlarni o‘zida jamlagan kishilar ramzi ifodasi sifatida ko‘p uchradi. Masalan, *Ot o‘limi – itga to‘y*; *Eshak o‘lsa – itga to‘y*. *It* leksemasi har ikki barqaror birlikda salbiy bo‘yoqni ifodalagan. “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da *it* so‘zi etalon bo‘lib kelgan turg‘un o‘xshatishlarning 10 tasida insonga xos salbiy harakatlar yoki bu harakatlarga bo‘lgan salbiy munosabat itga nisbatlangan holda tavsiflangan: *itday qopmoq, itday akillamoq, itday yugurmoq, itday sanqimoq, itday ergashmoq, itday xor bo‘lmoq, itday quturmoq, itday ichmoq, musofir itday dumini qisib yurmoq, itday turmush kechirmoq*[47]. Bu shundan dalolat beradiki, til sohiblari insonga xos xulq-atvor, xatti-harakatlarni tavsiflashda o‘ziga yaqin bo‘lgan uy hayvoni – it obrazini tanlagan. It odamning sadoqatli hamrohi, qo‘riqchisi bo‘lishiga qaramay, ba’zan o‘z egasini ham tishlab olishi, “it baribir itligini qilishi” xalq ongida it haqida salbiy stereotiplarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Mazkur stereotiplar esa lisoniy shaklda barqaror birliklarga ko‘chgan. It salbiylik bilan bir qatorda sodiqlik, vafodorlikni ham assotsiatsiyalaydi. Buning misoli sifatida *It – vafo, xotin – jafo* maqolini, *itday vafodor* turg‘un o‘xshatishini keltirish mumkin.

Boshiga it kunini solmoq iborasi *rosa qiynamoq, o‘ta azob-qiynoqqa solmoq* ma’nosini bildiradi. Barcha itlar ham egasi tomonidan asralmaydi. Ba’zilari topsa suyak g‘ajiydi, topmasa och-nochor holda qolaveradi, lekin shu holda ham yuklangan vazifani bajaraveradi. Xo‘rlangan, o‘z vaqtida qorni to‘ymagan, azoblangan kishilarning holati itning shu holiga o‘xshatilgan. *Bo‘ynidan bog‘langan it ovga yaramas* maqolida *it* zoomorf lingvomadaniy kodi orqali xohishi bo‘lmagan kishini majburlab ish qildirolmaslik holati bayon qilingan.

Burgut barqaror birliklarda yirik, chaqqon va kuchli kishilar ramzi bo‘lib keladi. *Burgut chivin tutmas* maqolida *burgut* zoomorf lingvomadaniy kodi buyuk maqsadlarni ko‘zlovchi, *chivin* zoomorf lingvomadaniy kodi esa mayda-chuyda

---

[47] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 99–101.

tashvishlar bilan oʻralashib yuruvchi kimsalar obrazidir. "Maqolning oʻz maʼnosi ikki metrli kuchli qanotlarga ega boʻlgan burgutlar jayron, xonaki echki, kaklik, tovushqon, yumronqoziq, baʼzan boʻrilarni ovlab kun kechirishi, burgutning tana tuzilishi chivin-pashshalarni ovlashga mutanosib emasligi, bunday mayda hasharotlar burgut bolalariga ham oziqa boʻlolmasligini anglatgan boʻlsa"[48], uning majoziy maʼnosidan buyuk maqsadi bor inson mayda-chuyda tashvishlarga aralashmasligi tushuniladi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli "**Fitomorf lingvomadaniy kodlar**" deb nomlanib, ularning lingvomadaniy xususiyati yoritildi. Oʻzbek lingvomadaniyatida muayyan tushunchani oʻsimliklar vositasida ifodalash juda koʻp uchraydi. Albatta, bu birinchi navbatda dehqonchilik oʻzbek xalqining asosiy mashgʻulotlaridan biri ekanligi bilan izohlanadi.

Terakka qarab, *tol oʻsar*; *Mevali daraxt yerga engashar, Mevasiz daraxt koʻkka tirmashar*; *Uzumini ye, bogʻini soʻrama*; *Magʻiz achchiq boʻlsa, poʻstiga ham urar; Dushman orttiraman desang, Chaqirtikan boʻl*; *Olma olmadan rang olar* barqaror birliklari tarkibidagi fitomorf lingvomadaniy kodlar muayyan lingvomadaniy mazmunni ifodalashga xizmat qilgan. *Terakka qarab*, *tol oʻsar* maqolida *terak* fitomorf lingvomadaniy kodi otani, *tol* fitomorf lingvomadaniy kodi uning farzandini ifodalab kelgan. Farzandning otasidan "boʻy" olishi terakka qarab tolning oʻsishiga oʻxshatilgan.

Oʻzbek xalqi gullar bilan bogʻliq birliklardan qizlarning ismini qoʻyishda keng foydalanadi. Umuman, qiz bola, ayniqsa, maʼshuqa gulga oʻxshatiladi. Maʼlumki, gulning turi koʻp: hidli-hidsiz, tikanli-tikansiz, foydali-bebahra. Jamiyatdagi insonlar ham gullarga oʻxshab har turli. Turli toifa kishilarning siyrati-yu suvrati barqaror birliklardagi fitomorf lingvomadaniy kodlar vositasida yanada aniq-tiniq ifodalanadi. *Bevafo doʻstdan tayoq yaxshi, bebahra guldan yaproq yaxshi* maqolida ham buni kuzatish mumkin. Tayoq badanga tegsa, jonning ogʻrishi aniq. Tayoq oʻzining bir xususiyatini oshkor koʻrsatadi. Bevafo doʻst esa doʻstman, deb ichingga kirib olib, siringni bilib, vaqt-soatida seni sotadi. Shu sababdan ham bevafo doʻstdan tayoq yaxshi deyilmoqda. Maqolning ikkinchi hukmida *bebahra gul* fitomorf lingvomadaniy kodidan vafosiz, sadoqatsiz inson anglashilmoqda, yaʼni bevafo inson bebahra gulga oʻxshatilmoqda. Ayonki, bebahra guldan foydali gul yoki yaproq afzaldir, bevafo doʻstdan vafoli doʻst maqbuldir. Ushbu maqolda bevafo doʻst badanga ozor beruvchi tayoqqa, zavq-shavq ulashmaydigan bebahra gulga qiyoslangan.

Tikansiz gul boʻlmas, mashaqqatsiz – hunar maqolida *gul* fitomorf lingvomadaniy kodi hayot, farovonlik, boylik maʼnosida qoʻllangan. Mashrabning *Sadafsiz dur, tikansiz gul, mashaqqatsiz hunar boʻlmas, Riyozat chekmasdan turib yor vasliga etib boʻlmas* baytida ham bu ifoda yanada goʻzal shaklda tarannum etilgan.

Magʻiz achchiq boʻlsa, poʻstiga ham urar maqolida *magʻiz* fitomorf lingvomadaniy kodi – (ich) farzand, *magʻizning poʻst* (ust) esa ota-ona. Mazkur

---

[48] Холманова З., Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016. – Б. 40.

maqolda ota-ona mevaning poʻstiga, farzandi mevaning magʻziga oʻxshatilmoqda. Bu oʻxshatish vositasida oʻzbek xalqi bolajon ekanligi, bolani mevaning magʻziga, danagiga oʻxshatishi, bolaning qilgan xatosi, bilib-bilmay bosgan qadami ota-onasiga isnod, laʼnat keltirishiga ishora qilinmoqda.

Danagi shirin, danagidan magʻzi shirin maqolida ham *danak* fitomorf lingvomadaniy kodi farzandni*, magʻiz* fitomorf lingvomadaniy kodi nabirani ifodalagan. Bundan koʻrinadiki, *meva* fitomorf lingvomadaniy kodi ota-ona, *danak* fitomorf lingvomadaniy kodi ota-onaning oʻgʻli yoki qizi, *danakning ma ʻgʻzi* oʻgʻli yoki qizining bolasi, yaʼni nabira ramzidir. *Bolamning bolasi, qandak oʻrikning donasi* maqolida *dona* soʻzi *magʻiz* soʻzi oʻrnida kelib, u ifodalagan maʼnoni anglatadi. Yani ushbu maqolda *oʻrikning donasi* fitomorf lingvomadaniy kodi nabirani bildiradi. *Danak* fitomorf lingvomadaniy kodi baʼzi iboralar tarkibida ham muayyan vazifani bajaradi. Masalan, *danak* fitomorf lingvomadaniy kodi *Boshida* (yoki *miyasida) danak chaqmoq* (doimiy ravishda xoʻrlamoq, azoblamoq, jabrlamoq) iborasida danakning qattiqlik maʼnosiga, *danagini chaqmoq* (magʻzini chaqmoq, biror narsaning mohiyatini, mazmunini anglab yetmoq) iborasida danakning magʻziga, *danakdek*, *danakday* (kattaligi danak hajmiday keladigan; hajmi va shakli danak kabi boʻlgan) oʻxshatishida danakning koʻrinishiga ishora qilgan.

Oʻzbek tilida yosh, katta hayotga endi qadam qoʻyayotgan oʻgʻil-qizlar navnihol, yaʼni yangi chiqqan niholga oʻxshatiladi. *Daraxtdan meva olaman desang, niholidan parvarish qil*; *Bolani yoshdan asra, niholni boshdan asra* maqollaridan oʻzbek tili barqaror birliklarida *nihol* farzand ramzi boʻlib kelishi yorqin koʻrinadi.

Oʻzbek tili barqaror birliklarida *arpa* fitomorf lingvomadaniy kodi *bugʻdoy* fitomorf lingvomadaniy kodiga nisbatan bahosi baland narsani bildirish uchun qoʻllaniladi. Masalan, *Arpa ekkan arpa olar, bugʻdoy ekkan bugʻdoy olar; Bugʻdoy noning boʻlmasin, bugʻdoy soʻzing boʻlsin* maqollarida *bugʻdoy* fitomorf lingvomadaniy kodi yaxshi, sifatli narsa; shirin, yoqimli maʼnolarini ifodalaydi.

Bir tovoq qizil olma, Ushlamoqqa hadding bormi? (*Choʻgʻ*) topishmogʻida *qizil olma, Bir savat anor, Hadding boʻlsa, ol* (*Choʻgʻ*) topishmogʻida *anor* fitomorf lingvomadaniy kodi choʻgʻning ramziy ifodasidir.

Bobning "**Antropomorf lingvomadaniy kodlar**" deb atalgan faslida barqaror birliklarda tayanch vazifa bajaruvchi, muayyan maqsadda qoʻllanilgan shaxs otlari va shaxs nomlari antropomorf lingvomadaniy kod sifatida oʻrganildi. Antropomorf lingvomadaniy kodlar topishmoqlarda koʻp kuzatildi. Masalan: *Onalari tokchadan tushsa, Bolalari yugurib keladi* (*Choynak*, *piyola*); *Bir yaproqda oʻttiz kelin soch taraydi* (*Oy*, *30 kun*); *Ikki opamning boʻyi teng* (*Eshik*); *Bir uyda ikki oʻrtoq, Biri sariq, biri oq* (*Tuxum*); *Katta kichik besh oʻrtoq*, *Uyushsa, boʻlar toʻqmoq* (*Barmoqlar*); *Fotima – Zuhra urishadi, Merosini boʻlishadi* (*Qaychi*); *Sariboy akam ichkari, soqollari tashqari* (*Sabzi*); *Esonboy akamning kissasini El yigʻilib tikolmas* (*Yer yorigʻi*). Mazkur misollardagi *Fotima-Zuhra*, *Sariboy*, *Esanboy* soʻzlari shaxs nomini bildirsa-da, ular mazmunan turdosh otdir. *Fotima-Zuhra* antropomorf lingvomadaniy kodi – qaychi va uning ikki tigʻi, *Sariboy aka* antropomorf lingvomadaniy kodi – sariq rangli predmet, yaʼni sabzi, *Esonboy*

antropomorf lingvomadaniy kodi yer turdosh otlariga ishora qilgan. Shu oʻrinda aytish oʻrinliki, topishmoqlar tarkibida shaxs nomini bildiruvchi lingvomadaniy kodlarga qaraganda shaxs otini bildiruvchi lingvomadaniy kodlar koʻp kuzatildi.

Bir koʻzli kampir, koʻylakka gul tikar (*Igna*); *Uzun-uzun iz keldi*, *Uzun boʻyli qiz keldi* (*Yoʻl*); *Katta xotin uy poylaydi*, *Kichkina xotin yoʻqlovga ketadi* (*Qulf, kalit*) topishmoqlarida *bir koʻzli kampir*, *uzun boʻyli qiz*, *katta xotin*, *kichkina xotin* soʻz birikmalari antropomorf lingvomadaniy kodlardir. Yuqorida aytilganidek, topishmoqlarda jumboqlangan predmetni ifodalayotgan metaforik obraz yoki oʻxshatish oʻzining sifatlovchisi bilan keladi. Bu topishmoq javobini topishga yanada yordam beradi. Keltirilgan *Katta xotin uy poylaydi*, *Kichkina xotin yoʻqlovga ketadi* (*Qulf, kalit*) misolida qulf katta xotin, uning kaliti kichkina xotin obrazlari bilan tavsiflangan. *Katta xotin* antropomorf lingvomadaniy kodi qulfning kalitdan katta boʻlishiga, *kichkina xotin* antropomorf lingvomadaniy kodi esa, aksincha, ya'ni kalitning qulfdan kichik boʻlishiga ishora qilgan.

Eshik orqasida beli bogʻliq qul yotar (*Supurgi*); *Sochi yoziq quv kampir, Beli bogʻliq shum kampir* (*Surupgi*) topishmoqlarida supurgi beli bogʻliq qulga; sochi yoziq quv kampir beli bogʻliq shum kampirga oʻxshatilgan. *Qirq hujrada qizlar yotar* (*Anor*) topishmogʻida *anor* – tasavvur predmeti, *qirq hujradagi qizil qizlar* esa metaforik tagma'no asosidagi noreal hodisadir. Mazkur topishmoqlarda jonsiz predmetlar jonli, ya'ni shaxsni ataydigan soʻzlar orqali ifodalangan.

Beshinchi bob **"Tabiat tushunchasi bilan bogʻliq lisoniy birliklarning lingvomadaniy kod sifatida ifodalanishi"** deb nomlanadi. Ushbu bobning birinchi fasli *"**Tabiat unsurlari va hodisalarini bildiruvchi soʻzlarning lingvomadaniy kod sifatida voqelanishi**"* deb nomlandi va bunda *suv*, *havo*, *olov*, *tuproq*; *shamol*, *boʻron*, *chaqmoq*, *momaqaldiroq*, *yomgʻir*, *sel*, *doʻl*, *qor*, *muz*, *bulut*, *tuman*, *tutun* lingvomadaniy kodlarining xususiyati yoritildi.

Ma'lumki, oʻzbek tili ham ogʻzaki, ham yozma durdonalarga boy tildir. Bu nodir durdonalarda tabiat bilan bogʻliq materiallar ham juda koʻp.

Mazkur bobda tabiat unsurlari va hodisalarini bildiruvchi birliklar uch guruhga ajratilib tadqiq qilindi. Bular: osmon jismlari, tabiat unsurlari va hodisalari, tabiiy jism hamda obyektlarni atovchi birliklar.

Tabiat soʻzi atrofida birlashuvchi lisoniy birliklarni atovchi lingvomadaniy kodlarda millatning tabiat va koinot sirlari, ular haqidagi tasavvurlari, xulosalari, oʻsimliklar va hayvonlar olami, ayrim narsalarning paydo boʻlishi haqidagi madaniy qarashlari yaqqol oʻz ifodasini topadi. Shunday birliklardan bir guruhi osmon jismlari: osmon, quyosh, oy, yulduz; tabiat unsurlari va hodisalari: suv, havo, olov, tuproq; shamol, boʻron, chaqmoq, momaqaldiroq, yomgʻir, sel, doʻl, qor, muz, bulut, tuman, tutun; tabiiy jism, obyektlar: togʻ, tosh, buloq, dengiz, daryo, koʻl va shu kabilarni bildiruvchi lingvomadaniy kodlardir. Nutqda bu guruhga kiruvchi lingvomadaniy kodlardan biror voqelikni, holat, xususiyat, xarakterni oydinroq, yorqinroq ifodalashda foydalaniladi.

Butun borliqning boshlangʻich asosi, ibtidosi boʻlgan toʻrt unsur (suv, havo, tuproq, olov)ning biri suvdir. *Obihayot* ta'rifini olgan ne'matni atovchi *suv* soʻzi barqaror birliklarda keng qoʻllaniladi. Bu suvning hayot manbayi ekanligidan, unga insonning ehtiyoji benihoya koʻp boʻlganligidan hamdir. Mazkur fikrimiz *suv*

bilan havoday (nihoyatda, juda-juda) iborasidayoq o'z isbotini topadi. O'zbek xalqi barqaror birliklarida suvga inson, rizq-nasiba, yorug'lik, poklik; ofat-falokat ramzi sifatida qaraladi.

Ariq qazimasang, otizga suv chiqmas maqoli *Mehnatsiz rohat yo'q; Mehnat qilmay rohat ko'rmas, Urug' sepmay ekin o'rmas*; *Yer qazimasang, oltin chiqmas, Qarmoq solmasang – baliq* maqollarini yodga soladi. Boisi mazkur maqollarning barchasida har qanday rohat ortida mashaqqatli mehnat borligi uqtirilgan. *Ariq qazimasang, otizga suv chiqmas* maqolidagi tayanch qism bo'lgan *suv* so'zi rohat-farog'atda yashash ramzi bo'lib kelgan. *Suv* so'zi vositasida har bir mehnat qilgan kishining "otizi", ya'ni dasturxoni noz-ne'matlarga to'la bo'lishiga ishora qilingan.

Qor lingvomadaniy kodi o'zbek xalq topishmoqlarida paxtani (*Qorday oppoq, Yungday yumshoq* (*Paxta*), tuxumni (*O'zi dumaloq, Qor kabi oq* (*Tuxum*), (*Qoziqda qor turmas* (*Tuxum*), un mahsulotini (*Past osmondan qor yog'ar* (*Elak; un*), shakarni (*O'zi oppoq, qor emas, Non bo'lmaydi, un emas* (*Shakar*), shirguruchni *Qozon ichida oppoq qor* (*Shirguruch*), balxi tutni (*Bahor kelsa, ochilar, Bog' yo'llarga sochilar*; *O'zi qor kabi oppoq, Erimaydi u biroq* (*Tut*), (*Nega dov-daraxt oppoq, Hozir qishmas-ku, bahor. Ko'kda oftob charaqlar, Daraxtda erimas qor* (*Tut*) ifodalab kelgan. Mazkur topishmoqlardan anglashiladiki, *qor* lingvomadaniy kodi paxta, tuxum, un, shakar, shirguruch, tutga qiyoslanuvchi ramz bo'lib keladi. Shu o'rinda *kognitiv tasniflagichlar* tushunchasiga murojaat qilishni o'rinli deb bilamiz. "Kognitiv tasniflagichlar – muayyan kategoriyani tashkil qiladigan konseptlarni o'z atrofida birlashtiradigan konseptlar. Masalan, PAXTA, SUT, QOR, BO'Z konseptlari o'zbek tilida "oq rangli obyektlar" kategoriyasini tashkil qiladi. Bunda OQ RANG konsepti mazkur kategoriyani uyushtiruvchi, ya'ni kognitiv tasniflagich maqomida bo'ladi. Kognitiv tasniflagichlar xalq tajribasining uning tafakkurida aks etishi natijasi bo'lib, muayyan til birliklari vositasida moddiylashadi hamda til sohiblarining voqelikni kategoriyalashtirishidagi milliy o'ziga xoslikni namoyon etadi"[49]. Yuqoridagi barqaror birliklarda til sohiblarining voqelikni kategoriyalashtirishidagi o'ziga xoslik yaqqol namoyon bo'lgan. Oq rang yuqoridagi birliklar tarkibida lingvomadaniy kod vazifasini o'tagan *paxt*a, *tuxum*, *un*, *shakar*, *tut* so'zlari denotatlarining barchasi uchun xos bo'lgan belgidir. Keltirilgan barqaror birliklarda bu rangni ifodalovchi *oq* so'zi qo'llanmagan bo'lib, *qor* so'zi ushbu rang ma'nosi sifatida reallashadi. Ma'lumki, *qor* konsepti ham "oq rangli obyektlar" kategoriyasiga kiradi. Xalqning lisoniy xotirasidan o'rin olgan ushbu madaniy axborot *qor* so'zi orqali oq rang ma'nosini kodlangan tarzda ifodalash imkonini bergan.

Yel o'tar, cho'qqi qolar, bosh ketar, do'ppi qolar; *Suv oqar, tosh qolar, O'sma ketar, qosh qolar* maqollari bir mazmunni aks ettiradi. *Yel o'tar, cho'qqi qolar, bosh ketar, do'ppi qolar* maqolida *yel* lingvomadaniy kodi bo'ron, shuningdek, ijtimoiy silkinishlar, *cho'qqi* makon lingvomadaniy kodi vatan, xalq, borliq; *bosh* somatik lingvomadaniy kodi inson umrini, *do'ppi* narsa-buyum

---

[49] Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B. 35.

lingvomadaniy kodi esa insonning hayoti davomida orttirgan narsasi, boyligi ma'nosini o'zida ifodalaydi.

Bobning "**Tabiiy jism va obyektlarni nomlovchi so'zlar lingvomadaniy kodlar sifatida**" deb atalgan faslida tabiiy jism va obyektlarni atovchi so'zlarning lingvomadaniy xususiyati tahlil qilindi.

Tog' o'zining viqori, salobati, mahobati, sirliligi, go'zalligi bilan insonni doim hayratda qoldiradi. Ayniqsa, baland tog'lar cho'qqisida manzara kishini o'ziga maftun etadi. Tog'ning bu kabi buyuk qudrati sabab bo'lsa kerak, bir qancha adabiyotlarda unga tangrining makoni sifatida qaraladi. "Xalqimiz orasida keng tarqalgan ushbu aytim va maqollar buning yaqqol isbotidir: "Tangrining jamolini ko'rmoqchi bo'lsang, tog'ga bor", "Tangrining qudratini ko'rmoqchi bo'lsang, tog'ga bor", "Baxil boyga borguncha, karamlik tog'ga bor"[50]. Bu barqaror birliklar mazmuni o'zbek xalqida tog' muqaddas sanalib, tangrining makoni sifatida qaralganini dalillaydi. O'zbek tilida ko'pincha ota-onaga nisbatan qo'llanuvchi *suyangan tog'i* iborasida *tog'* lingvomadaniy kodi ko'makchi, yordamchi, madadkor ma'nosini o'zida ifodalaydi. *Tog'dan orqasi bo'lganning toshdan yuragi bo'lar* maqolida ota-bobolarimiz jangchilarga dushman bilan kurashga qanday harbiy usul (taktika) ishlatish zarurligini uqtirib, "orqa" deyilganda "jang harakatlari ketayotgan yerning orqa tomoni; front orti; orqada zarur bo'lib qolgan taqdirda jangga kiritiladigan, pistirmaga qo'yilgan yashirin lashkar nazarda tutilgan[51]. Demak, bunda *tog'* lingvomadaniy kodi kuchli lashkar ramzini ifodalagan. Hozirda ham bu maqol keng qo'llaniladi. Biroq bugungi kunda *tog'* lingvomadaniy kodi biror-bir kishini himoya qiladigan, unga ko'mak beradigan, homiy kishi ramzini anglatadi. "It vovullagani bilan tog' qulamas" maqolida *tog'* lingvomadaniy kodida *tog'* so'zini esga soluvchi viqorli, salobatli, mahobatli kabi belgi bildiruvchi ma'nolar mujassamdir. Bunda yengilmas sabr-bardosh, kuchli aql-idrok egasi bo'lgan komil inson tog'ga o'xshatilib, u vositasida uning har qanday yomonliklarga, yovuzliklarga, g'iybat-u fasodlarga o'zida qarshi kuch topa olishi yorqin gavdalangan.

Yaxshining – qalbi – quyosh, Yomonning qalbi – tosh maqolida yaxshi insonning qalbi barchaga bir xil nur taratuvchi Quyoshga, yomon odamning qalbi esa toshga qiyos qilingan. O'zbek tilida *tosh* lingvomadaniy kodi *tosh* so'zining "juda qattiq" ma'nosini o'zida ifodalab, odatda, bemehr, achinish, kuyinish his-tuyg'usi yo'q kishilarga nisbatan qo'llaniladi. *Tosh* lingvomadaniy kodining bemehr, g'am, dard, tashvish kabi salbiy ma'nolaridan tashqari ba'zi bir iboralarda ijobiy mazmun kasb etgani ham bor. Masalan, *boshi toshdan* iborasida *tosh* so'zi o'ta chidam-bardoshli ma'nosini ifodalab, kuchli, qiyinchilikka chidamli insonga qarata aytiladi. Odamlarni chidam-bardoshli bo'lishga undash maqsadida aytiladigan istak, duoni bildiruvchi *boshing toshdan bo'lsin* iborasi o'zida mustahkamlik, chidamlilik ma'nosini ifodalaydi. *Tosh qotmoq* iborasida *tosh* lingvomadaniy kodi his-sezgisiz holatga nisbatan qo'llaniladi. *Toshday bot, toshday qot* iboralari qiz bolaning yangi uyga – kuyov xonadoniga toshday

---

[50] Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – Б. 57.
[51] Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – Б. 276.

mustahkam "o'rnashishi" niyat qilinganda aytiladi. *Orqasidan tosh otmoq* degan ibora ham mavjudki, kuyov uyiga uzatilayotgan qizning orqasidan kelin bo'lmishning yaqinlari tosh otadi. Bu odat qiz bola yangi uyda "toshday qotsin" mazmunida qilinadi. Ushbu ibora salbiy ma'noga ham ega. Bunda *tosh* lingvomadaniy kodi dushman tarafdan raqib tomonga otiladigan fisq-u fasod, g'iybat-u bo'htonni ifodalab keladi.

Tadqiqotda, shuningdek, *tog', tosh, buloq, irmoq, dengiz, daryo, ko'l* so'zlarining ham lingvomadaniy kod sifatidagi xususiyatlari tahlil qilindi.

Bobning uchinchi fasli "**Osmon jismlarini atovchi so'zlarning lingvomadaniy kod sifatidagi xususiyatlari**" deb nomlanib, unda *osmon, oy, quyosh, yulduz* kabi so'zlar fazo lingvomadaniy kodi sifatida tadqiq qilindi.

Boshi ko'kka (yoki *osmonga) yetmoq, boshi osmonda, ko'kka* (yoki *falakka) bo'y cho'zgan* iboralarida *ko' – osmon* so'zlari "baland, yuksak, ulug'vor" ma'nosini o'zida ifodalab, ijobiy buyoqdorlik kasb etgan. *Boshi ko'kka* (yoki *osmonga) yetmoq* iborasi "g'oyat xursand bo'lmoq, juda ham ko'ngli ko'tarilmoq" birikmasiga, *boshi osmonda* iborasi "xursand, shod" so'zlariga tengdir. Ushbu barqaror birliklar orqali xursand odamning ko'tarinki ruhiyati (o'zini baland osmonda uchib yurgandek his qilmoq)ga ishora qilingan. *Boshi ko'kka* (yoki *osmonga) yetmoq, boshi osmonda* iboralarida *ko'k – osmon* fazo lingvomadaniy kodi tayanch so'z bo'lib, unda balandlik, yuksaklik ma'nolari mujassam.

